

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

SHAMSIYEVA MANZURA BABABEKOVNA

**O‘ZBEK TILI FANIDAN
TOPSHIRIQLAR**

Uslubiy qo‘llanma

I QISM

Toshkent - 2018

O‘zbek tili fanidan topshiriqlar. Uslubiy qo‘llanma / Shamsiyeva M.B.
– T.: ToshDTU, 2018. - 91 b.

Uslubiy qo‘llanma ta’lim rus tilida olib boriladigan 1-bosqich barcha ta’lim yo‘nalishlari talabalariga mo‘ljallangan. Unda grammatik mavzular yuzasidan ma’lumotlar, dars jarayonida hamda mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berilgan. Bu talabalarning topshiriqlarni bajarishlarida ko‘mak beradi.

“O‘zbek tili” fanini o‘qitishda talabalarning o‘zbek tili bo‘yicha egallagan nutqiy ko‘nikmalarining leksik-grammatik imkoniyatlarini nisbatan kengroq mavzular doirasida mustahkamlash, mutaxassisligi doirasida o‘zbek tilida yozma bayon etish hamda ravon so‘zlash, og‘zaki ravishda amaliy nutqiy muloqotga kirishish va davlat tilida ish yurita olishga tayyorlash asosiy vazifa sanaladi. Ushbu uslubiy qo‘llanma shu maqsadda til ta’limining kommunikativ tamoyili asosida o‘zbek tilini puxta o‘rgatish, kundalik turmush va ish faoliyati mavzularida og‘zaki va yozma nutqiy savodxonlikni egallashlarini ta’minlashga qaratilgan.

Uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi.

**Taqrizchilar: M.Abduraxmonova – O‘zMU “O‘zbek filologiyasi”
kafedrasi dotsent, filologiya fanlari nomzodi**

**O.Usmonova – TDTU “Tillar (o‘zbek va rus)”
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi**

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2018.

KIRISH

Har bir til uning sohibi bo'lmish jamiyatning bebaho mulki bo'lib, o'zi mansub jamoaning nomi bilan ataladi: o'zbek xalqiga xizmat qiluvchi tilga *o'zbek tili* deyiladi. O'zbeklar o'z tilidan ko'p asrlar davomida foydalanib keladi. Dastlab og'zaki muloqotni ta'minlagan o'zbek tili keyinchalik yozma shaklda ham namoyon bo'lgan. Yozma nutqda til hodisalaridan foydalanishning ma'lum me'yorlarini ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'lgan. Til hodisalaridan ma'lum me'yor asosida foydalanish *adabiy o'zbek tilining* shakllanishiga olib kelgan.

So'zlashuv asosida shakllanib, so'zlashuv tili bilan yonma-yon yashab kelayotgan adabiy o'zbek tili ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, taraqqiyot bosqichlari nuqtayi nazaridan *o'tmish adabiy o'zbek tili* va *hozirgi adabiy o'zbek tili* deb ajratiladi. Adabiy o'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida ma'lum belgi-xususiyatlari bilan farqlanadi.

Ushbu o'quv predmetida o'zbek tili bus-butun holda emas, balki uning *hozirgi adabiy o'zbek tili* deb ataladigan holati bayon qilinadi.

“O'zbek tili” fanining asosiy vazifasi talabalarni shu tilning qurilishiga mansub hodisalar bilan ilmiy asosda tanishtirish, og'zaki va yozma nutqini o'qitish, yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun poydevor hosil qilishdir.

1-mavzu: O‘zbekiston – yagona vatan.

“Mustaqil davlat” matn.

Orfoepiya qoidalari. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi.

To‘g‘ri talaffuz qoidalarining yig‘indisi orfoepiya (grekcha: *orphos* – to‘g‘ri, *epos* – nutq) deb yuritiladi. To‘g‘ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Talaffuz me‘yorlari deganda ma‘lum bir qonun-qoidalariga amal qilib so‘zlash tushuniladi.

Unlilar orfoepiyasi


- Aa unlisi *savob*, *zamon* singari so‘zlarda o kabi, *muomala*, *munosabat*, *muhokama* kabi so‘zlarda i kabi talaffuz qilinadi.
- Ii unlisi *bir*, *sira* so‘zlarida qisqa, *ilm*, *muhim*, *doir* so‘zlarida cho‘z iq, q, x, g‘ tovushlaridan keyin kelganda ruscha *и* tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. *Mix*, *tig‘*, *xil* kabi so‘zlardagi i tovushi esa e tovushiga yaqin aytiladi.
- Oo unlisi *tonna*, *noyabr* so‘zlarida o‘ kabi talaffuz qilinadi.
- Uu unlisi *kuch*, *tutun* kabi so‘zlarda qisqa, *uyg‘ur*, *yozuv* so‘zlarida cho‘z iq va torroq talaffuz qilinadi.
- O‘o‘ unlisi *o‘tin*, *o‘roq*, *to‘liq* kabi so‘zlarda keng, *o‘rik*, *ko‘lmak* kabi so‘zlarda esa torroq talaffuz qilinadi.
- Ee unlisi *Feruz*, *dehqon*, *telefon*, *adres* so‘zlarida i tovushiga yaqin aytiladi.

Undoshlar orfoepiyasi

- Bb undoshi *kitob*, *maktab* so‘zlari oxirida kelganda p tarzida, *kelaber*, *sabab*, *kabob*, *dorboz* so‘zlari o‘rtasida kelganida v tarzida aytiladi.
- Vv undoshi chetdan kirgan *avtobus*, *avtomat*, *Ivanov* so‘zlarida f kabi aytiladi.
- Gg undoshi k, q bilan tugagan so‘zlarda k va q tarzida aytiladi: *ek+gan=ekkan*, *chiq+gan=chiqqan*.
- Dd undoshi *obod*, *ozod* kabi so‘zlar tarkibida kelganda t kabi aytiladi, *xursand*, *farzand* kabi so‘zlarda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi.
- Jj qorishiq portlovchi undoshi *avj*, *mavj* so‘zlarida ch kabi aytiladi.
- Jj sirg‘aluvchi undoshi chetdan kirgan *furajka*, *telejka* kabi so‘zlarda sh kabi aytiladi.
- Zz undoshi *sakkizta*, *tuzsiz* kabi so‘zlarda yonidagi tovush ta'sirida s kabi aytiladi.
- Nn undoshi *manba*, *tanbur*, *shanba* kabi so‘zlarda m kabi aytiladi.
- Ff undoshi *fakt*, *taft* kabi so‘zlarda p kabi aytiladi.

- *Qq* undoshi *maqsad, taqsimot, to‘qson, oqshom* kabi so‘zlarda x kabi aytiladi.
- Chet tillardan kirgan *traktor, direktor* kabi so‘zlarning urg‘usiz bo‘g‘inidagi unli deyarli talaffuz qilinmaydi, lekin yozuvda saqlanadi.

1- topshiriq. Quyidagi “Klaster” bo‘yicha taqdimotga tayyorlaning.




2-topshiriq. So‘zlarning urg‘usini qo‘yib, husnixat asosida ko‘chiring.

Matematika, kafedra, ohang, kompyuter, skaner, planshet, musiqiy, fizika, mashina, daromad, universitet, lirika, shoir, astronomiya, bemor, murabbiy, amaliy, harorat, militsiya, konstitutsiya, printer, velosiped, mehmonxona, slayd, informatika, biologiya, nosir, tarjimon, tarixmi, talabaman, bordi, quyoshday, qordek.

3-topshiriq.

UNLI VA UNDOSH TOVUSHLARNI VENN DIAGRAMMASI ASOSIDA IZOHLANG



Eslatma: ishni bajarish vaqti – 10 daqiqa. Natijalar A3 formatga joylashtiriladi

Mustaqil ta'lim

1. *“O‘zbekiston – yagona vatan” mavzusida matn yaratish.*
2. *“Imlo lug‘ati” bilan ishlash. Qo‘sh unli va qo‘sh undosh ishlatilgan so‘zlardan misollar yozish. 100 ta*

2-mavzu: O‘zbek tili – davlat tili. “O‘zbek tili” matni.
O‘zbek tili imlo qoidalari

Davlat tili haqidagi Qonunni ikki qismga bo‘lish mumkin:



I. Boshqa millat va xalqlarning tiliga hurmat



II. Davlat tili ijtimoiy hayotning hamma sohalarida, o‘zaro muomalada boshqa tillar bilan barobar qadrlanadi

I. Boshqa millat va xalqlarning tiliga hurmat. Fuqarolar o'zaro muomalani va ta'lim olishning qaysi tilda bo'lishini o'z xohishlariga ko'ra tanlab olishlari, boshqa millat va xalqlar zich yashaydigan joylarda maktabgacha bo'lgan tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etishlari (5-modda), mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralariga o'z tillarida murojaat qilishlari mumkin.

Ular sudlov ishlari bilan o'z tillarida ham tanishib chiqishlari va so'zlashishlari mumkin. Korxona, muassasa va birlashmalarda, agar ko'pchilik davlat tilini bilmasa, ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari boshqa tillarda ham olib borilishi mumkin. Xalqaro anjumanlarning tili va hujjatlari davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham o'tkazilishiga ruxsat etiladi. Agar talab etilsa, notarial harakatlar davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham olib boriladi. Fuqarolar ariza, taklif, shikoyatlarini o'z tillarida berishlari, radio, teleko'rsatuvda o'z tillarida gapirishlari, kitob, maqola yozishlari mumkin.

Shu bilan birga, muassasa va tashkilot muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari hamda hududlar, maydon, ko'chalar, geografik obyekt nomlari davlat tilida bo'ladi. Shuningdek, Qonunning 4-moddasida ko'rsatilishicha, «Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi».

O'zbek tili imlo qoidalar

1995-yilning 24-avgustida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan va shu yilning o'zida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar» nomi bilan kitobcha shaklida nashr qilingan. U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:
Unlilar imlosi (1-7-qoidalar).
Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).
2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).
3. Qo'shib yozish (38-50- qoidalar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).
5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).
7. Ko'chirish qoidalar (75-82-qoidalar).

4-Topshiriq. Zarur o‘rinlarga “X” yoki “H” harflarini qo‘yib ko‘chiring.

Sa...na, ba...t, fa...r, ba...or, che...ra, pu...ta, ...alovat, ...arajat, ...atti-
...arakat, ja...l, i...tiyor, sha...ta, ...urjun, za...ar, e...rom, de...qon, sa...ifa,
mu...bir, g‘am...o‘r, qa...r, kara...t, a...borot, ro...at, qa...ramon, ...o...ish,
dastur...on, guru..., u...lagan, ...amda.

5-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning xatosini to‘g‘rilab ko‘chiring.

Talafuz, vaxt, sabir, hokum, baddiy, me’ros, obot, sahiy, strabon, tarih,
farzant, axt, maktab, texnologiya, slayt, proektor, o‘xtalmoq, sazovar,
pastu baland, intirnet, o‘m bir, qobilyat, mutaxasis, lisey, aftobus,
o‘qtuvchi, muhum, okian, istirob.

6-topshiriq.

Qo‘shib yoziladigan so‘zlar	Ajratib yoziladigan so‘zlar	Chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar	Qo‘sh undosh bilan yoziladigan so‘zlar	Qo‘sh unli bilan yoziladigan so‘zlar

Mustaqil ta’lim

1. “O‘zbek tili – davlat tili” mavzusida matn yaratish.
2. “Imlo lug‘ati” bilan ishlash. “Toifalash” jadvalini davom ettirish.

3-mavzu: Milliy qadriyatlar – millat iftixori.

“O‘zbek udumlari” matni. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.

SO‘Z YASALISHI HAQIDA MA’LUMOT

Tilda so‘z yasash vositalari va usullari xilma-xil. O‘zbek tilida so‘z yasalishining asosiy ikki usuli mavjud.

1. Morfologik (affiksasiya) usul. 2. Sintaktik (kompozitsiya) usul.

O‘zak va negizga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish bilan yangi so‘z yasash **morfologik usul bilan** so‘z yasash deyiladi. So‘z yasalishida qo‘shimchalar ishtirok etganligi uchun bu usul affiksatsiya usuli hisoblanadi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zakka qo‘shiladi: **gulli, gulla, ishla, paxtakor**. So‘z yasovchi qo‘shimchalar asosan o‘zakdan keyin qo‘shiladi. O‘zakdan oldin qo‘shiluvchi old yasamalar o‘zbek tili uchun xos emas. Biroq sifat turkumiga mansub bir qator so‘zlarning yasalishida old qo‘shimchalar ishtirok etadi. Masalan, **badavlat, serhosil, nohaq** kabi. Morfologik usulda so‘z yasalishdagi muhim shartlardan biri so‘z bilan yangi yasama orasida bog‘liqlik bo‘lishidir. Masalan, **oshpaz, gulzor** so‘zlaridagi o‘zak va yasovchi qo‘shimchalar orqali hosil bo‘lgan qismlar: **osh-oshpaz, gul-gulzor** ma’no jihatidan bir-biriga bog‘liqdir.

Morfologik usul bilan so‘z yasalishining shakllari ham rang-barang. Masalan, **paxtakor**, so‘zida o‘zak + qo‘shimcha, serdaromad so‘zida qo‘shimcha, + o‘zak, **bil-im-li** so‘zida o‘zak + negiz+ qo‘shimcha, **nohaq+lik** so‘zida qo‘shimcha + o‘zak+ qo‘shimcha shakllari mavjud.

Morfologik usul bilan so‘z yasalishi ot, sifat, fe’l va **ravish** turkumlari uchun xos.

Sintaktik usul bilan so‘z yasalishi ham unumdor usullardan sanaladi.

Ikki yoki undan ortiq so‘zlarning o‘zaro qo‘shilishi natijasida so‘z yasalishi **sintaktik usul** bilan so‘z yasalishi deyiladi. Sintaktik usul bilan **qo‘shma va juft so‘zlar yasaladi**. O‘zbek tilida bulardan tashqari so‘z yasalishining yana bir qator usullari mavjud.

Chunonchi, bir turkumdagi so‘z boshqa turkumga ko‘chadi va o‘z ma’nosini o‘zgartiradi. Masalan, **barno** (sifat), **Barno** (ot), **to‘xta** (fe’l), **To‘xta** (ot). Shuningdek, bir turkumdagi so‘z o‘z ma’nosini o‘zgartirishi, boshqa ma’no ifodalashi mumkin. Masalan, uzdi (ipni uzdi), **uzdi** (orani uzdi) **yozdi** (xat), **yozdi** (barg), **yetdi** (manzilga), **yetdi** (maqsadga). So‘z yasalishidagi bu usul lug‘aviy-semantik usul deyiladi.

O‘zbek tilida so‘z yasalishining yana **bir usuli – abbreviatura usulidir**. Bu usul bilan qisqartma so‘zlar hosil bo‘ladi: **BMT, MDH, DAN** kabi. Bu usul bilan so‘z yasash faqat ot turkumi uchun xosdir.

7-topshiriq

Soʻzlarning tuzilishiga koʻra turlariga misollar topib, ularni “Toifalash” jadvaliga kiriting.

Sodda tub soʻzlar	Sodda yasama soʻzlar	Qoʻshma soʻzlar	Juft-soʻzlar	Takroriy soʻzlar

8-topshiriq. Soʻzlarni tarjima qiling.

sodir boʻldi	
hodisa	
shu palladan	
yilnoma	
qaror	
navbatdan tashqari	
	природные богатства
	верховное право
	образован, создан
	состав
	полноправный
	уровень жизни населения
	здесь: в праве сама

Mustaqil taʼlim

1. *“Milliy qadriyatlar – millat iftixori” mavzusida matn yaratish.*
2. *“Imlo lug‘ati” bilan ishlash. “Toifalash” jadvalini davom ettirish.*

4-mavzu: Tarix va zamona.

“Tariximizga oid manbalar” matni.

Tilning leksik qatlamlari.

O‘zbek tili Markaziy Osiyoning qadimiy mahalliy xalqlarining turkiy tillar tizimidagi tillaridan biri sifatida uning lug‘at tarkibi, grammatik qurilishi ham uzoq tarixga ega.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasi o‘zining butun taraqqiyoti jarayonida shu tilning ichki rivojlanish qonuni asosida boyib borgan, bu tilning so‘z boyligi, leksik-semantik tizimi sifatida shakllangan yaxlit bir hodisadir.

Hozirda umumiste’molda bo‘lgan barcha so‘zlar, grammatik vositalar o‘zbek tilining o‘zinikidir. Lekin bu leksik boylik birdan vujudga kelmagan. Birinchidan, o‘zbek tili leksikasi turkiy xalqlar uchun umumiy bo‘lgan so‘z boyliklari asosida rivojlangan bo‘lsa, ikkinchidan, boshqa xalqlar tillaridan so‘z o‘zlashtirish sababli boyigan.

Mana shu ko‘rsatilgan sabablarga ko‘ra o‘zbek tilining lug‘at tarkibi ikki qatlamdan iborat deb qaraladi:1) o‘z qatlam;2) o‘zlashgan qatlam Bu qatlamlarning har biri o‘z navbatida yana bir necha qatlamlarga bo‘linadi.

O‘zbekcha so‘zlar qatlami. O‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida va boshqa tildan kirgan so‘zlarga so‘z yasash orqali hosil qilingan lug‘aviy birliklar ham mavjud. Masalan, bog‘dorchilik, ishxona, so‘roq, payvandchi, purkagich kabilar.

O‘z qatlamga oid so‘zlarning ba’zi muhim belgilari deb quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. O‘z qatlamga oid so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’nolidir. O‘zlashma qatlam so‘zlari bu jihatdan chegaralangandir: bosh, qosh, bel, til kabi.

2. Asl turkiy so‘zlar, asosan, bir va ikki bo‘g‘inli bo‘ladi (yer, yem, tez, tuz) ikki bo‘g‘inli (tanish, talqon, tirna). Uch bo‘g‘inli so‘zlar kam (tirqira).

3. Bir bo‘g‘inli so‘zlar ko‘proq undosh+unli+undosh shakliga ega: kul, kun, do‘l.

4. Ikki bo‘g‘inli turkiy so‘zlar ko‘proq ochiq bo‘g‘inlardan tuziladi: ikki, ola, olma.

5. Turkiy so‘zlar **r, l, v, h, ts (u)** tovushlari bilan boshlanmaydi.

6. Turkiy so‘zlar oxiri **e, o‘** unlisi bilan tugamaydi. Ba’zi undov va “de” so‘zi bundan mustasno.

7. Turkiy soʻzlar tarkibida sirgʻaluvchi **j, boʻgʻiz h, (u)** tovushlari uchramaydi.

8. Turkiy soʻzlarda birinchi boʻgʻindan keyingi boʻgʻinlar hech vaqt unli tovush bilan boshlanmaydi.

9. Boʻgʻin boshida, oʻrtasida va oxirida 2 undosh yoki unli tovush yonma-yon kelmaydi. Oʻzbek tilidagi *ost, ust, art, berk, boʻrt, pirt, moʻlt, ort, yilt* soʻzlari bundan mustasno.

10. Tutuq belgisi qoʻllanmaydi.

Umumturkiy leksik qatlam. Hozirgi oʻzbek tili lugʻat tarkibida qadimgi davrlardan qoʻllanib kelayotgan turkiy soʻzlar mavjudki, ular Markaziy Osiyo va Qozogʻistonda yashovchi hozirgi qozoq, turkman, qirgʻiz, tatar, boshqird, qoraqalpoq, uygʻur, ozarbayjon va boshqa turkiy xalqlar uchun ham umumiydir.

Oʻzbek tilidagi qadimiy soʻzlardan ayrimlari turkiy tillarning XI-XII asrlarga oid yoziv obidalari asosida tuzilgan lugʻatlarda ham koʻzga tashlanadi. Masalan, ota (ota), ona (ona), aka (aka), ini (ini) kabi qarindoshlikni, adaq (ayaq), arqa (orqa), bogʻaz (boʻgʻiz) kabi odam aʼzolarini, yaz (yoz), yal (yil), kun (quyosh), qash (qish) kabi fasllarni, tagʻ (togʻ), ot (oʻt), sub (suv) kabi tabiat hodisalarini, adgʻir (aygʻir), at (ot), vuqa (buqa), yilqi (yilqi) kabi hayvon nomlarini ifodalovchi soʻzlar borki, ular turkiy tillar uchun umumiy boʻlib, fonetik jihatdangina farq qiladi, xolos. Umumturkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek tili lugʻat tarkibining yarmidan koʻpini tashkil etadi.

Oʻzlashgan qatlam. Dunyodagi birorta tilning boyishi uchun oʻz imkoniyatlari kifoya qilmaydi, balki uning boyishida tashqi manba ham ishtirok etadi. Bu esa turli tarixiy jarayonlar bilan bogʻliq boʻlib, uning oʻz qonuniyatlari bor. Shunga koʻra oʻzlashgan soʻzlar quyidagilar.

1) tojikcha-forscha; 2) arabcha; 3) ruscha-baynalminal qatlamlardan iboratdir.

Tojikcha-forscha soʻzlar. Hozirgi oʻzbek xalqining oʻtmish avlodlari eroniy (ayniqsa, tojik) tilida soʻzlovchi aholi bilan yaqin aloqada boʻlgan qon-qarindosh boʻlib yashab kelishgan.

Bu ikki xalqning iqtisodiy, madaniy munosabatlari natijasida koʻplab tojikcha soʻzlar oʻzbek tili lugʻat tarkibida mustahkam oʻrnashib qolgan. Masalan, chiroq, zardob, charm, sinch, nay, xokandoz, barkash, obdasta, parda, gugurt, gilam, choyshab, poyandoz, paypoq, paytava, poshna, astar, marjon, zarbob, ustun taxta, gʻisht, xari, panjara, juvoz, mardikor, ajdar, jonivor, kaptar, bedana, parranda, parvona va boshqalar.

O'zlashgan tojikcha so'zlar ko'proq kundalik hayotga uy-ro'zg'or, bog'dorchilik, dehqonchilik, hunarmandchilik ishlariga doir tushunchalarni ifodalaydi.

Fors-tojikcha so'zlarni ajratish ancha qiyin. Shunga qaramay, tojikcha so'zlarga xos ayrim xususiyatlar mavjud. Ular quyidagilar:

1. Sirg'aluvchi **j** tovushi tojikcha so'zlarga xos: mujda, ajdar, G'ijduvon.

2. So'z oxirida **st, ft, nd, xt, sht** tovushlari qator keladi: rost, kaft, taft, baland, farzand, daraxt, taxt, go'sht, g'isht kabi.

Arabcha so'zlar. Qadimgi turkiy tilga arabcha so'zlar VI-VIII asrlardan boshlab kira boshlagan. Bu hol arablarning shu davrda Markaziy Osiyoni istilo qilishi bilan bog'liq, ular mahalliy aholiga yozuvlar o'z alifbosini joriy qiladilar, davlat va idora ishlarini arab tilida olib boradilar. Shunday sabablar bilan bir qancha arabcha so'zlar o'zbek tiliga o'zlashib qolgan. Bu jarayon Somoniylar hukmronligi (X-X asrlar) davrida arab xalifaligining susayishi bilan cheklandi va din tili sifatida ish ko'radi.

Hozirgi o'zbek tilida taxminan quyidagicha so'zlarini ko'rish mumkin: maqola, faylasuf, ilm, amaliyot, qashshoq, maktab, madrasa, adabiyot, kasb, kitob, qalam, atr, farmon, sinf, hukumat, hokimiyat, fuqaro, jinoyat, huquq, xizmat, musobaqa, qonun, avliyo, azon, harf, alifbe, xat, savod, xato, daftar, maorif, muallim, imtihon, talaba, axloq, insho va boshqalar.

O'zbek tiliga arab so'zlari ikki xil yo'l bilan o'zlashgan, birinchidan, maktab, madrasa, kitob, din, davlat tizimi orqali kirgan. Masalan, maktab, dars, qalam, kitob, nashriyot, muharrir, muallif, matbuot, jild, nusxa, xat, tarbiya, ta'lim, saboq, ikkinchidan, eroniy tillar orqali kirgan. Masalan, baquvvat, qarzdor, g'amxo'r, mansabdor va boshqalar.

Arabcha so'zlarga xos ayrim belgilar quyidagilar:

1. Ayn (‘) tovushi arabcha so'zlarga xos: Ra'no, ma'no.

2. Arabcha so'zlar tarkibida **g, j (sirg'aluvchi), ch, p, ng** tovushlari uchramaydi.

3. So'z boshida **-ik, -iq, -ak, -mu** elementlari bo'ladi: ikrom, iqbol, akram, musharraf.

4. So'z oxirida **-ullo, -yot, -iy, -viy** qo'shimchalari bo'ladi: Abdullo, adabiyot, oilaviy

Ruscha-baynalminal so'zlar. Rus tili va u orqali baynalminal so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Bunday so'zlar, asosan, ikki yo'l bilan, birinchidan, Rossiyaning Markaziy Osiyoni, xususan, xonliklarning bosib olishi, ikkinchidan, turli siyosiy, madaniy aloqalar, fan, texnika rivojlanishi bilan

o‘zlashgan. Masalan: zavod, fabrika, kredit, shtraf, samovar, chaynik, yashik, adekolon, manifest, izvosh, soldat kabilar.

Rus tili orqali boshqa tillaridan o‘zlashgan baynalminal xususiyatiga ega bo‘lgan bir qancha so‘zlar ham mavjud. Masalan, revolyutsiya, filologiya, psixologiya, fizika, federatsiya, bank, chek, aktyor, konsert, palto, ferma, telefon, va boshqalar.

9-topshiriq. Quyidagi matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Государство Хорезмшахов



Шаткостью положения сельджуков и каракитаев воспользовались новые правители Мавераннахра – Хорезмшахи. Еще в XI веке сельджукский султан назначил правителем Хорезма верного Ануштегин Мухаммада, дав ему титул Хорезмшаха. Потомки Ануштегина

развернули свою войну за независимость Хорезма и вскоре подчинили себе огромную территорию, куда вошли земли Мавераннахра, Хорасана, Герата, Мерва и др. Наивысшего могущества Хорезм достиг при хорезмшахе Текеше. Хорезм становится одним из самых сильных азиатских государств средневековья. Широкое развитие получает наука и культура.

Нашествие Чингизхана



После покорения Китая в 1215 году Чингизхан стал готовиться к походу на Мавераннахр, где по слухам улицы в городах были покрыты коврами, а в степях гуляли верблюды с золотыми погремушками. Государство Хорезмшахов не было готово к вторжению столь

могущественного противника. Хорезмшах Мухаммад поспешно отступил в Балх, забрав самое ценное. А народ под предводительством его старшего сына - талантливого полководца Джалалетдина Мангуберди - вступил в борьбу против монгольского нашествия. Но силы были неравны, и монголы почти беспрепятственно покоряли и разоряли цветущие хорезмские города-оазисы.

В 1220-1221 годах монголы полностью разрушили Самарканд и столицу государства Гургандж (Ургенч). В средневековье были уничтожены многие памятники древней культуры Средней Азии.

Под властью монголов. Чагатайский улус

Грандиозная империя Чингисхана досталась трем его сыновьям – Джучи, Угэдэю и Чагатаю. Владения Чагатая простирались от китайского Синьцзяна до Самарканда и Бухары и от южного Алтая до Амударьи. Эти земли получили название – Чагатайский улус. Монгольские правители назначали наместниками Мавераннахра мусульманских купцов, заставляя население платить непосильные налоги. То и дело вспыхивали восстания (например, под руководством Махмуда Тараби в Бухаре в 1238), которые жестоко подавлялись. Такая нестабильность привела к тому, что Мавераннахр в период средневековья по сути распался на мелкие, соперничавшие друг с другом владения.

Узбекская династия Шейбанидов



В 1499 на территорию Мавераннахра вторглись новые завоеватели – кочевые племена Дашт-и-кипчак. Глава племени Мухаммад Шейбанихан в 1500–1501 завоевал Самарканд и основал новое государство, включившее в себя Мавераннахр, Хорасан и Хорезм, а позднее

и другие земли. Династия Шейбанидов правила почти сто лет и превратила Центральную Азию в арену кровопролитных войн. В череде междоусобных войн за престол были уничтожены все представители рода Шейбанидов. И в 1599 к власти пришла династия Аштарханидов. При Аштарханидах происходит переход от централизованного государства к трем самостоятельным ставкам. Это Бухарский эмират, Кокандское и Хивинское ханства.



Государство Тимуридов

В роли объединителя этих разрозненных земель выступил воинственный завоеватель Амир Тимур (Тамерлан). В 1363 он завладел Самаркандом, который впоследствии превратил в столицу своей огромной империи. В 1370 году Амир Тимур был признан верховным правителем Мавераннахра. В 1388 году Амир Тимур разорил богатый

хорезмский город Ургенч – крупный пункт на Шелковом пути, а затем и столицу Золотой Орды город Сарай Берке. Теперь все караванные пути проходили через города Мавераннахр – Отрар на юге Казахстана, Балх, Ташкент, Герат, Султанию (Иран). В средневековье столица Амира Тимура – Самарканд – была призвана стать самым красивым городом на земле. Лучшие зодчие создавали новые и новые шедевры архитектуры средневековья: дворцы, мечети, мавзолеи, которые до сих пор поражают воображение красотой и размахом.

Во 2-ой половине XIV века Тимур начал военную кампанию против других государств, подчинив себе огромные земли: с востока на запад - от Черного моря до реки Ганг, а с севера на юг – от Аральского моря до Аравийского.

Государство, созданное Амиром Тимуром, после его смерти в 1405 стало рушиться на глазах. Сын Тимура - Шахрух – сумел сохранить земли Хорасана, Афганистана и Мавераннахр. Он сделал своей столицей Герат, а в Самарканде оставил править своего сына Улугбека. В 1447 после смерти Шахруха Улугбек стал во главе правящей династии, но в 1449 был коварно убит своим сыном Абдулатифом. Правление Тимура и его наследников – Шахруха, Улугбека и Бабура, ознаменовалось развитием искусства, ремесла, торговли, расцветом литературы, науки. В Герате в это время творил известный поэт и государственный деятель Алишер Навои.

Хивинское, Кокандское ханства и Бухарский эмират



Становление Хорезма как самостоятельного государства связано с именем хана Ильбарса (1511-1525) - потомка Джучи. В начале XVI века во главе государства стали ханы, прибывшие из Дашт-и-Кипчака. Хорезм стал

самостоятельным государством и получил название Хивинского ханства. Хорезму трудно было сохранять единство государственного объединения, несмотря на все усилия, предпринимавшиеся верховными правителями. Наивысшего расцвета Хивинское ханство достигло при Абулгази хане.

С середины XVIII в. в Бухаре устанавливается власть династии мангытов. Правителем Бухарского ханства стал Мухаммад Рахим-бий (1753-1758 гг), который назывался эмиром, а государство с этого

времени стало называться Бухарский эмират. История Бухарского эмирата насыщена – это история постоянных междоусобных войн и конфликтов, что не могло не сказаться на экономической и культурной жизни страны.

Отделению Коканда (1709г.) от Бухарского ханства способствовали компактность территории и возросшая экономическая самостоятельность Ферганской долины.

В Кокандское ханство вошла территория Северной Ферганы от Намангана до земель Пансадгази. Первым правителем Ферганы в 1710г. был провозглашён Шахрухбий (1709-1721/22гг.) из племени Минг («тысяча»). Три независимых ханства, возникшие на территории Средней Азии в период средневековья, были тесно связаны между собой. Политические события, происходившие в одном ханстве, затрагивали интересы другого.

Среднеазиатские ханства в середине XIX века были типично феодальными государствами. Общественному строю их были присущи как черты жизни оседлого населения, так и кочевых и полукочевых племен. Это особенно характерно для Хивинского ханства.

Mustaqil ta'lim

1. *“Tarix” mavzusi yoritilgan asarlar ro‘yxatini tuzish va bittasini tahlil qilish.*

2. *Quyidagi so‘zlarni tarjima qilish va yodlash.*

ajdod	
lahja	
sening kabilar	
ilk bor	
yo‘qlab turmoq	
fazilat	
hayitlik	
	священный
	букв. носит на зубах, бережет
	грудь
	поддерживать
	ватное одеяло
	душистый
	старый

	изба
	подушка

5-mavzu: *Ulug‘ ajdodlarimiz.*
“Abu Rayhon Beruniy” matni.
Atamalar va ularning vujudga kelishi.

Termin grekcha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, chek, chegara degan ma‘noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san‘at va madaniyat sohasiga xos so‘z hisoblanadi. Terminologiya – terminlar haqidagi ta‘limot va terminlar majmui degan ma‘nolarni anglatadi. Termin so‘zi o‘rnida ba‘zan atama, istiloh so‘zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to‘g‘ri emas. Atama termin so‘ziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh so‘zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me‘yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi.

XX asrning 30-yillari o‘zbek tilining ko‘plab terminologik lug‘atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma‘no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo‘li va boyish manbalari haqida nazariy masalalar ham ishlab chiqildi.

O‘zbek tili terminologik tizimining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rol o‘ynaydi. Chunki hayotda ro‘y berayotgan ulkan o‘zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi.

Ma‘lumki har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan uzviy bog‘liqdir.

O‘zbek terminologiyasida o‘tgan asrning 50-yillaridan keyin qator salmoqli ilmiy ishlar amalga oshirilgan, ya‘ni nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan, monografiya va risolalar chop etilgan, yuzlab maqolalar e‘lon qilingan. O‘zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan biri professor Renat Doniyorov hisoblanadi. Uning “O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari” (1977) kitobida o‘zbek tili texnik terminologiyasini tartibga solish, undagi qator chalkashliklarning oldini olish kabi masalalar o‘rin olgan.

10-topshiriq. “Bumerang” texnologiyasi.

Quyida berilgan tarixiy shaxslar haqidagi manbalar ustida kichik guruhlarda ishlanadi va shu asosda ma'lumotlar og'zaki tarzda almashinadi.

1-guruh: Amir Temur

Amir Temur, Temur, Temurbek (to'liq ismi **Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul**) (1336-yil, 9-aprel, Kesh (hozirgi Shahrisabz) sh. yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani) — 1405-yil, 18-fevral, O'tror sh., Samarqandda dafn etilgan) — o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi.

Amir Temurning ota-onasi

Amir Temurning onasi Takina xotun buxorolik. Otasi amir Tarag'oy esa barlos urug'ining oqsoqollaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilishgan. Shu bois Amir Temurning otasi amir Tarag'oy ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt beklarining qurultoyiga taklif etilar va u bunday yig'inlarda muttasil qatnashar edi. Shu bilan birga u, Sharafuddin Ali Yazdiyning ta'kidlashiga ko'ra, "ulamo va sulaho va muttaqiylarg'a mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi...". Tarag'oybek piri Shamsuddin Kulolni ayniqsa chuqur ehtirom qilgan. Keyinchalik shayx Kulol Amir Temurning ham piri bo'lgan. Tarag'oybek 1360-yilda vafot etgan.

Amir Temurning yoshligi

Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temur yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetgan. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar) to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, astasekin navkar bo'lishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

2-guruh. Zahiriddin Muhammad Bobur

Bobur (taxallusi; to'liq ismi **Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo**) (1483.14.2, Andijon 1530.26.12, Agra) — o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir; tarixchi, geograf; davlat arbobi, iste'dodli sarkarda; boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda.

Hayoti va ijodi

Boburning otasi — Umarshayx Mirzo Farg'ona viloyati hokimi, onasi — Qutlug' Nigorxonim Mo'g'uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Boburning onasi o'qimishli va oqila ayol bo'lib, Boburga hokimiyatni boshqarish ishlarida faol ko'mak bergan, harbiy yurishlarida unga hamroxlik qilgan. Umarshayx Mirzo xonadoni poytaxt Andijonning arki ichida yashar edi. Hokim yoz oylari Sirdaryo bo'yida, Axsida, yilning qolgan faslini Andijonda o'tkazardi. Boburning yoshligi Andijonda o'tgan. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozilu ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlaydi. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan "Bobur" („Sher“) laqabini oladi.

Bobur otasi yo'lidan borib, mashhur sufiy — Xoja Ahrorga ixlos qo'yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e'tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, "Boburnoma" asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizliqdan xalos etganini, eng og'ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta'kidlaydi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi (1494-yil iyun).

Movarounnahr taxti uchun kurash

Movarounnahr 15-asr oxirida o'zaro nizolashayotgan temuriy shahzodalar yoki mulkdor zodagonlar boshchilik qilib turgan, deyarli mustaqil bo'lib olgan ko'pdan ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan edi. Movarounnahr taxti uchun kurash avjga chiqqan, turli siyosiy fitnalar uyushtirilmoqda edi. Buning ustiga Umarshayx Mirzoga tobe bir necha bek va hokimlar yosh hukmdorga (Boburga) bo'ysunishdan bosh tortadilar. Ularning ayrimlari Boburning ukalarini yoqlasa, ba'zilar mustaqillik da'vosini qiladi, yana boshqa birlari Boburga raqib, boshqalari amaki, tog'alariga qo'shilib, uni jismonan yo'qotish payiga tushadi. O'z amakisi va tog'asi bo'lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlarini daf qilgan Bobur hukmronligining dastlabki 2-3-

yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o‘zaro munosabatni yaxshilash, qo‘shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o‘rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo‘lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi.

3-guruh: Jaloliddin Manguberdi

Jaloliddin Manguberdi (arab. جلاو الدین منگوبردی — *Jalāl al-Dīn Menguberdī*, to‘liq oti — *Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad*) (1198—1231) — Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220-yildan), Alovuddin Muhammad II ning to‘ng‘ich o‘g‘li. U 33 yil umr ko‘radi va umrining 11 yili jang ichida o‘tadi. **Jaloliddin Manguberdi**, Jaloliddin (to‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) (1198—1231) — Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori (1220—31), mohir sarkarda. Anushteginlardan. Xorazmshohlardan Muhammadshohning katta o‘g‘li. Onasi — Oychechak turkman kanizaklardan bo‘lgan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib “Manguberdi” nomi bilan mashhur bo‘lib ketgan.

Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G‘azna, Bomiyon, G‘ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo‘lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlangan (1215). Biroq Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat‘iy noroziligi sababli Qutbiddin O‘zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o‘zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrda bostirib kirib birin-ketin shaharlarni egallab, Samarqandga yaqinlashganlarida xorazmshoh Muhammad Kaspiy dengizi bo‘yida joylashgan Obeskun shahri yaqinidagi Ashurdan panoh topgan. Og‘ir bemor bo‘lgan Muhammad o‘g‘illarini yoniga chorlab, so‘nggi damda Jaloliddin Manguberdini o‘z o‘rniga xorazmshoh etib tayinlagan. Jaloliddin Manguberdi ukalari Oqshoh va Qutbiddin O‘zloqshohlar bilan birga Gurganj mudofaasiga oshiqadi. Lekin Gurganjdagi qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e‘lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo‘ldilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Manguberdi Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganjni tark etib, Xurosonga yo‘l olgan. Niso shahri yaqinida uni 700 nafar mo‘g‘ul

suvoriysi kutardi. Jaloliddin Manguberdi shiddatli jangdan so'ng ularni tor-mor keltirib, Nishopurga keldi. Bu yerdan u barcha viloyat hokimlariga nomalar jo'natib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi birlashishga da'vat etdi, bir oydan so'ng G'azni tomon yurdi. Yo'lda unga Hirot voliysi, qaynotasi Aminalmulk 10 ming kishilik qo'shin bilan kelib qo'shildi. Qandahorni qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari bilan 3 kunlik jangda Jaloliddin Manguberdi ularni tormor keltirgan. U G'azniga 1221 yil keldi. Bu yerda unga xalaj qabilasi boshlig'i Sayfuddin Ig'roq, Balx voliysi A'zam malik, afg'onlar sardori Muzaffar malik, qarluklar boshlig'i Hasan Qarluq kelib qo'shildilar. Ularning har biri ixtiyorida 30 minglik qo'shin bor edi. Jaloliddin Manguberdining o'zidagi kuchlar esa 60 ming suvoriy edi. Jaloliddin Manguberdi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Takajuk va Malg'ur boshchiligidagi mo'g'ul qo'shiniga hujum qilib, 3 kunlik jangdan so'ng ularni tor-mor keltirgan, 1000 dan ortiq mo'g'ul askari o'ldirilgan, omon qolgan qismi Panjshir daryosidan o'tib, ko'prikn buzib tashlashgan. Bu Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullar ustidan qozongan dastlabki yirik g'alabasi edi.

1230-yilda Jaloliddin Iroq qal'asi Xilotni qo'lga kiritadi, lekin tezda Qayqubod va Malik Al-Komil tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. To'liq mag'lubiyatni O'qtoyxon tomonidan yuborilgan sarkarda Charmag'on oxiriga yetkazadi. Jangda og'ir yaralangan Jaloliddin Kurdiston tog'larida yashirinadi, 1231-yilda esa kurdlar tomonidan o'ldiriladi.

Hozirgi kunga kelib, Jaloliddin o'zbek va turkman xalqlarining milliy qahramoniga aylangan. Unga atab bir necha doston va asarlar yaratilgan.

Mustaqil ta'lim

1. *Qomusiy olimlar haqida ma'lumot to'plash va taqdimotga tayyorlanish.*

6-mavzu: Vatan va vatanparvarlik. “Xotira va qadrlash maydoni” matni. Ijtimoiy-siyosiy leksika.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi hamda mustaqillikka erishganligimiz munosabati bilan tilimizda qo'llanib kelayotgan ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarning anchasi har ikkala tildagi mos muqobillari bilan almashtirila boshlandi. Masalan, o'zbek tilida qo'llanib kelgan terminlar quyidagicha almashtiriladi: **Abstrakt – mavhum,**

avtograf – dastxat, adaptatsiya-moslashish, administratsiya – ma’muriyat, direktiva – ko’rsatma, krizis – tanglik va h.k. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo’lish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros bo’lmish O’rxun-enisey va boshqa yodnomalarda o’z ifodasini topgan: qag’an, budun, balyq (“shahar” ma’nosida), sab (“kengash” ma’nosida), bitikchi (“kotib” ma’nosida), alp (“qahramon” ma’nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir.

O’zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va yevropa tillaridan kirgan o’zlashmalar hisobiga boyiy boshladi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi har qanday o’zgarish uning terminologiyasida ham o’z izini qoldiradi. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya deganda, siyosiy tuzum, ijtimoiy va siyosiy guruhlar, partiyalar, oqimlar va ularning vakillari, hukumat yig’ilishlari va muassasalari, davlatni boshqarish va uning organlari, dunyoqarashlar, mulkiy munosabatlar, ichki va tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy hujjatlar, axloq masalalari, xullas, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog’liq tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar majmuyi tushuniladi.

11-topshiriq. So’zlarni leksik qatlamlarga ajrating va “Konseptual jadval”ga joylashtiring.

Zangi, aviator, politexnika, oftob, varrak, tarxon yorlig’i, mutasaddi, ust, maktab, pichoq, qozon, farzand, mikrob, lift, taft, harorat, marketing, ko’k, ro’mol, shirin, havas, shakar, she’r, sur’at, fan, muomala, o’quvchi, yugurmoq, bormoq, yozmoq, paxta, tov, jo’l, baxt, matn, shoir, chashma, nukleotid, klonlashtirish, laboratoriya, mashhur, daftar, talaba, shou, farosat, xalq, kelmoq, havo, ishlamoq, bosh, ko’z, munshiy, kotib, diler, muayyan, floriaza, ferment, ota-ona, bola.

“Konseptual jadval”

O’z qatlam	O’zlash-gan qatlam	Sheva	Eskirgan so’z	Neologizm

12-topshiriq. Turli vaziyatlarga doir nutq tayyorlang va uni taqdim eting (jurnalist, aktyor, o‘qituvchi va h.k.).

Mustaqil ta’lim

1. “*Vatan va vatanparvarlik*” mavzusi yoritilgan asarlar ro‘yxatini tuzish va bittasini tahlil qilish.

7-mavzu: Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik.

“Muzeylar” matni.

Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o‘zgarishlar davrida yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o‘zbek tilida ham yangi

terminlar paydo

bo‘lmoqda, ilgaridan

ishlatib kelingan qator

leksemalar yangi

ma’nolar kasb etmoqda. Shu boisdan,

leksikologiya, xususan, terminologiya oldida

qator muhim masalalarni yechish vazifasi

turibdi.

*Terminlar yig‘indisi va shu terminlarni o‘rganuvchi soha **terminologiya** deyiladi. Termin grekcha **terminos** so‘zidan olingan bo‘lib, **chek, chegara** ma’nolarini bildiradi.*

*Ilm-fan, texnika, qishloq xo‘jaligi va san‘atga oid tushunchalarning aniq nomini bildiruvchi bir ma’noli so‘z va birikmalar **terminlar** deyiladi.*

Bugungi kunda terminologiyani amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, terminlar yaratish va ularni qo‘llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyani xilma-xil masalalari bo‘yicha atroflicha tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tilshunoslikda terminlarning o‘zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo‘lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta’kidlaydi: «Texnika taraqqiyoti ta’sirida terminologiya o‘zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi». Texnik malakaning endilikda ma’lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo‘layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng

foydalanayotganligi terminlarga bo'lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Texnikaviy terminologiya o'zbek tili so'z boyligining salmoqli qismini tashkil qiladi. U texnikaning doimiy taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tinimsiz boyib, takomillashib boradi. Bugungi kunda turmushimizning turli-tuman sohalarida ishlatiladigan texnikalar sonining o'zi nechta. Uning adog'iga yetish mushkul bo'lsa kerak. Kundalik maishiy turmushimizda ishlatiladigan oddiy utyug, muzlatgich, gaz plitkasidan tortib, murakkab agregatlar: katta zavodlardagi texnikalar, harbiy arsenalidagi texnikalar, samolyot yoki kosmik raketalar va ular bilan bog'liq terminlarning sanab adog'iga yetish mumkinmikin. Ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi samolyotlarda sakson mingdan ortiq detal (qism) mavjud ekan. Bu degani sakson mingdan ortiq so'z. Boshqa texnikalarda-chi. Demak, tilshunoslar va soha mutaxassislari oldida texnik terminologiyaning har bir sohasiga jiddiy munosabatda bo'lish va omma uchun tushunarli variantlarini taklif qilishdek murakkab vazifa turibdi. Texnik terminologiyadagi nuqsonlardan biri dublet (sinonim) terminlarning ko'payib ketishidir. Masalan, tirkama-tirkagich, tirsakli val-tirsaksimon val, pritsep-tirkama-arava, ariq qazish mashinasi-ariq kovlash mashinasi, kartoshka kovlash mashinasi-kartoshka qazish mashinasi, silliqdash stanogi-jilvirlash stanogi va h. Bunday har xilliklar tilda me'yorning buzilishiga olib keladi.

13-topshiriq. Quyidagi mashhur muzeylar haqidagi matnlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Ежегодно 18 мая во всем мире отмечается Международный день музеев. Он появился в 1977 году, когда на очередном заседании Международного совета музеев было принято предложение российской организации об учреждении этого культурного праздника. С 1978 года Международный день музеев стал отмечаться более чем в 150 странах. Сегодня мы вам предлагаем ознакомиться с 10 лучшими музеями мира.

Британский музей



Британский музей — один из крупнейших музеев мира. Дело не только в количестве экспонатов, но и в общем качестве размещенных здесь коллекций.

История

Современное здание музея, датируемое 1823 годом, - прекрасный пример неоклассической архитектуры XIX века. Основа экспозиции была заложена в 1753 году, когда Ганс Слоан предложил огромное собрание произведений искусства и древностей парламенту за сумму, значительно меньшую их совокупной стоимости. Постепенно добавились и другие собрания, включая Королевскую библиотеку, подаренную Георгом II. Вскоре музей уже не мог вместить все, и Роберт Смёрк начал работу над зданием, которое мы видим сегодня.

1. Tilingni oj ixtiyoringda asra, so'zingni ehtiyot bilan so'zla. (A.Navoiy) 2. Har bir millatning dunyoda borlig'ini kojrsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yojqotmak millatning ruhini yojqotmakdur. (A.Avloniy) 3. Har bir kishining so'zi aqliga yarasha bo'ladi. 4. Har kim oj og'zining qorovuli bo'lsa, uning nafasi hech qachon kojg'ilmaydi. 5. Kimning ichi kojora singari kojsh bo'lsa, uning behuda so'zlari atrofdagilarning miyasini egovlaydi. 6. London universiteti qoshidagi kollej olimlari shuni aniqladilarki, biron-bir tilni bilish nafaqat miya to'qimalarini harakatga keltiradi, balki uning tuzilishini ham ojzgartiradi. ("Fidokor" gazetasidan) 7. "So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht", - deb yozadi A.Qodiriy. 8. Tiling bilan dilingni bir tut. So'zni tilingda pishirmaguncha, tilga olma. (A.Navoiy)

Mustaqil ta'lim

1. Hikoya yoki drama oj'qish, daftarga tavsif yozish va so'zlashga tayyrolanish.

11-mavzu: Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba.
"Adabiyot" matni.

Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari

Uslub — tilning inson faoliyatining muayyan sohosi bilan bog'liq vazifalariga kojra ajratilishi. Kishilar faoliyatining barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik

vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan ma'lum darajada farq qiladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy (funktional) uslub deb yuritiladi. Vazifaviy uslub deganda, tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki aniq bir adabiy til tarkibi ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan o'zaro farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi.

Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv; 2) rasmiy; 3) ilmiy; 4) publitsistik; 5) badiiy.

BADIIY USLUB

Badiiy asarlarni ko'p o'qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublarning ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

21-topshiriq. A.Qahhorning «O'jar» hikoyasidan olingan parchani o'qing. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlang.

— Hozir, hozir! — dedi, — Suyar! Ho, Suyar! Bu yoqqa chiq, o'g'lim! E, yotganmiding! Mayli bu yoqqa o'tir. Bizga bir narsani hal qilib ber: Saltikov katta yozuvchimi, Shadrin katta yozuvchimi?

Suyar goh otasiga, goh Zargarovga qarar va hayron edi.

— Yo'q, Siz savolni noto'g'ri qo'ydingiz, — dedi Zargarov.

— Bunday: Saltikov ilgari o'lganmi, Shadrin?

— Ikkovi bitta odam-ku! — dedi Suyar, nima ekanini bilolmay. Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi va bunga ham qanoat qilmay oʻrnidan turib oʻyinga tushdi. Qutbiddinov doʻq urdi:

— Saltikov bilan Shedrin-a? Kim aytdi senga?

— Oʻzim bilaman, kitobda bor.

— Kitobda bor? Shaxmatni koʻproq oʻyna, itvachcha!

Qutbiddinov bola bechorani koʻp urishdi... Suyar yigʻlab yubordi...

Anchadan keyin Suyar kattakon bir kitob koʻtarib chiqdi.

— Mana, — dedi portretni koʻrsatib, — mana, Saltikov-Shedrin!

22-topshiriq. Turli nutq uslublariga doir ogʻzaki nutq tayyorlang va uni taqdim eting.

23-topshiriq. Dramatik asarlarni rollarga taqsimlab, obrazli oʻqish mashqi.

24-topshiriq. *Ajratib yoziladigan soʻzlarni aniqlab koʻchiring.*

Yolgʻiz//oyoq, achchiq//tosh, mol//boqar, har//kim, hech//qaysi, doʻst//dushman, qirq//oyoq, Muhabbat//noma, osma//koʻprik, bilak//uzuk, u//bu, mana//bu, ana//u, bahs//munozara, otash//arava, hamma//yoq, qirq//besh, oʻn//bir, ikki//ming, ser//soqol, qabul//qilmoq, bayon//etmoq, himoya//qilmoq, Shimoliy//Amerika, bu//gal, har//safar, necha//marta, bu//kun, tor//mor, yuz//yil, alla//qayoqda, alla//kim, bera//oladi, ayta//oladi, bir//xil, har//xil, uy//joy.

Mustaqil taʼlim

1. Turli uslublarda nutq tayyorlash.

2. Ommabop uslubda matn yaratish: maqola, esse, eʼlon, reklama...

12-mavzu: Alisher Navoiy hayoti va ijodi.

“Soʻz mulking sultoni” matni.

Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Frazeologiya. Frazeologiya (gr. *phrasis* – “ifoda”, *logos* – “taʼlimot”) atamasi ikki maʼnoda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui.

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema koʻrinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli maʼnoviy tabiatga ega boʻlgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi:

tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq va boshqa.

Frazeologizm *ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma* atamaları bilan ham yuritiladi.

Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi – bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. *Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom **hovuridan tushdi.***(P.Tur.) 2. *Stol yoniga kelguncha uning **boshi aylanib ketdi.***(S.Zun.) 3. ***Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan** bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi.* 4. ***Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak.*** (As.Mux.)

25-topshiriq. A.Navoiy haqidagi ma'lumotlar bo'yicha "Idrok xaritasi" texnologiyasi asosida ishlash.

26-topshiriq. Frazeologik birliklarni qo'llagan holda matn tuzing.

27-topshiriq. ***Nuqtalar o'rniga i yoki u harflarini qo'yib ko'chiring.***

Shov...llamoq, nuf...s, gur...h, xurj...n, rus...m, sov...n, tush...ntirmoq, uch...n, tov...q, turk...m, suk...t, uz...lmoq, kul...msiramoq, guv...llagan, dur...st, uz...m, gavj...m, yoz...vchi, o'qit...vchi, tur...b, q...choqlamoq, uz...b, mush...k, uchq...n, un...mli, bug...n, dov...l, konst...tutsiya, Movaro...nnahr, qorov...l, beg...noh, q...log'iga, tush...b, uz...n, vuj...d.

Mustaqil ta'lim

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni to'plash va so'zlashga tayyorlanish.

2. G'azallaridan yodlash.

3. "Frazeologik lug'at" bilan ishlash.

13-mavzu: *Ommaviy axborot vositalari.*

“Ommaviy axborot vositalari” matni.

Publitsistik uslub

Publitsistika (lot. *publika* — xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o‘quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy Majlis yig‘inlarida, turli xil anjumanlarda qo‘llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo‘ladi : 1) yozma shakl; 2) og‘zaki shakl.

Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari esa publitsistik uslubning og‘zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo‘lishlik, hozirjavoblik, ta’sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar ko‘proq qo‘llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo‘poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistika bir qancha janrlarga ega. Har qaysi janrning o‘zi, masalan, gazeta, radio, televideniya beriladigan reportajlar uslub va uslubiy vositalari hamda o‘zida berilayotgan reportaj, pamflet, felyeton kabi nutqiy vositalari jihatidan farqlanadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ularning hammasi bir umumiy belgi asosida publitsistik nutqning turli ko‘rinishlari sanaladi. U ham bo‘lsa, nutqning jamiyatga qaratilganidir.

Publitsistika –

lotincha so‘z bo‘lib,

«xalq, omma»

ma’nolarini

anglatadi.

Publitsistik uslub. Davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o‘quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal,

radio, televideniye), Oliy majlis yigʻinlarida, turli xil anjumanlarda qoʻllaniladigan nutq uslubi *publitsistik uslub* sanaladi.



Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bagʻishlangan bosh *maqolalar*, *felyeton* va *pamfletlar*, *murojaatnomalar*, *chaqiriqlar*, *deklaratsiyalar* publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari esa publitsistik uslubning ogʻzaki shaklidir.

Publitsistik uslub – matbuot, radio, telekoʻrsatuvga xos boʻlgan tildir.

Publitsistik uslubning oʻziga xos xususiyati - muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda boʻlish, hozirjavoblik, taʼsirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar koʻproq qoʻllaniladi. M., isyon, irqchilik, qoʻporuvchilar, siyosiy tanglik, bitim va b.

Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, eʼlonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat boʻladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlar orqali ifodalanadi.

Zarur oʻrinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarda «muxbirimizning xabar berishicha, elchixonada xodimining soʻziga koʻra, muxbirimiz voqea roʻy bergan joydan xabar beradi ...» va hokazo iboralar qoʻllanadi.

Har bir xabarga taʼsirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qoʻyiladiki, bu hol oʻquvchining diqqatini jalb qiladi. («*Qonun barchaga barobarmi?*», «*Kafolat vaʼda emas*», «*Chetlatilgan mutaxassis*», «*Tuya koʻrdingmi – yoʻq*», «*Chumchuq soʻysa ham qassob soʻysin*»).

Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati **axborot berish va taʼsir qilish**, soddalik, tushunarlilik, taʼsirchanlik, adabiy til meʼyorlariga qatʼiy amal qilishdir.

28-topshiriq. Maktubni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan o'rinlarni topib, ularni izohlang. Siz ham biron-bir asar qahramoniga shunday maktub yozishga harakat qilib ko'ring.

TURSUNBOYGA AYTAR SO'ZLARIM!

(Said Ahmadning «Ufq» romanidagi Tursunboyga maktub)

Qishloqning bir xonadonida «chiroq yoqildi», ya'ni Jannat xola va Ikromjon tog'a o'g'il ko'rdilar. O'g'lining ismini Tursunboy deb atashdi. Samimiy odamlar xonadonida yoqilgan chiroq siz edingiz, Tursunboy!

Siz yoshligingizdan ishyoqmas, dangasa, qo'rqqoq bo'lib o'sdingiz. Qarang, katta yigit bo'lib ham qolibsiz. Afsuslar bo'lsinkim, Jahon urushi bo'lib qoldi. Sizni ham urushga chaqirtirishdi. Ota-onangiz ko'plar qatori yakka-yu yolg'izini Vatan himoyasiga yubordilar. Ular: «O'g'limiz jang qilib, xalqimni ozod, yurtimni obod qiladi», deb orzulagan edilar. Ammo, ammo... Ota-ona orzusi osmonga havodek uchib ketdi. Orzulari og'zida qoldi. Siz urush qiyinchiliklariga dosh berolmay qochib ketdingiz, so'ngra qishloqning chetida, to'qayzorlar orasida berkinib yurdingiz. Buni onangizdan boshqa hech kim bilmas edi. Bechora Jannat xola... Har kuni o'y-xayoli, hayoti to'qayzorda bo'lib qoldi. Otangizdan berkitib ovqat olib kelar edi. Buni o'zgalar bilib qolishidan juda-juda qo'rqar edi.

Sizga maktub bitmoqdaman-u, xayolimga quyidagi misralar kelaveradi. Jannat xola zorlanayotganga o'xshaydi nazarimda:

Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman,
Ko'z imdan yomg'irlar to'kilar tinmay.
Bu yorug' dunyoda bormi, bilmayman,
O'z o'g'lin yo'liga intizor menday...(M. Yusuf)

Kunlar o'tdi... Onangiz xastalana boshladi, chunki uni vijdon azobi qiynar edi. Faqat sizni o'ylar edi.

Kunlardan bir kuni Ona sizga og'riyotganini aytdi, siz bu gapga parvo ham qilmadingiz, qo'lidan ovqatni olib hayvonlarcha ovqat yeyar edingiz. Ha, siz faqat o'zingizni, qorningizni o'ylar edingiz.

Siz to'qayzordasiz... Ana shunday kunlarning birida ko'chadan tobut ko'tarib, yig'i bilan mahalla-ko'yingiz, qarindosh-urug'laringiz, padaringiz Ikromjon ota o'tib borar edi. Yuragingiz sezdi, tobut ichidagi sizning mushfiqqina onangiz Jannat xola edi. Yuragingizni g'am-alam bosdi, chunki shunda Siz: «Endi menga kim ovqat olib keladi», deya alam chekdingiz. O'shanda ham o'zingizni o'yladingiz. Onayizorga ozgina bo'lsa ham achinmadingiz-a?!

Nahotki, onangizni tuproqqa qo'yib kelishga ham yaramagan bo'lsangiz? Yo'q! Sizni odam bolasi, deya olmayman.

Tursunboy! Bir umr vijdon azobida qiynalishingizni xayolingizga keltirdingizmi? Shu payt sizni haqoratlagim keldi. Yo‘q! Yo‘q! Unday demayman, chunki har bir qilayotgan ishimizning oxiratda javobi bor-ku axir?! Sizni yuraksiz, dilsiz, zabonsiz, bir quriyotgan daraxtga qiyoslayman, xolos.

29-topshiriq. “Intervyu” mashqi.

30-topshiriq. Turli mavzularda esse yozish. Dastlab esse yozish qoidalari bilan tanishib chiqing. **Esse va uning tuzilishi.**


*Esse erkin
kompozitsiyali uncha
katta bo‘lmagan
nasriy asardir.*

Esse – fransuzcha so‘z bo‘lib, asl ma’nosi “urinish”, “sinash”, “ocherk”dir. Esse orqali narsa va hodisalarga yoki shaxsga oid subyektiv fikr bayon qilinadi.

Esse falsafiy, tarixiy biografik, publitsistik, adabiy tanqidiy, ilmiy ommabop va sof beleristik xarakterda bo‘ladi. Esse uslubi obrazliligi, jonli tilga yaqinliligi bilan ajralib turadi. Mazmuni muayyan sabab yoki masalaga oid tugal tafsilotni yoki aniqlikni talab qilmaydigan individual taassurot va mulohazalardan iborat bo‘ladi .

Mustaqil janr sifatida A.Montel ijodida tarkib topgan.

Bu janr G‘arbda oldinroq ishlatilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida XX asrning 70-80-yillaridan esse yaratila boshlandi.



Talabalarning faqatgina umumiy tushunchalar bilan tanish ekanligi yetarli emas. Talabalar har qanday mavzudagi qarama-qarshi fikrlar va qarashlarni o‘z lashtirishlari, ya’ni ularni tahlil va kerak bo‘lsa, tanqid qilib ham o‘rganishlari talab qilinadi. Muhokama va bahs olib borish usullari va ilmiy tarzda o‘z xulosalaringizni taqdim etish yo‘llari muhim ahamiyatga ega.

Muhokama tili

Mavzuni yoritayotganingizda *menimcha, mening fikrimcha, o'ylaymanki* kabi subyektiv iboralardan foydalanmang, uning o'rniga obyektiv birikmalardan foydalaning.

● *Umuman olganda, uyda ishlash yo'lga ketadigan vaqtni tejaydi.*

● *Ko'pchilik biladiki, e-mail va Internet xizmati ofis ishlarini ham bajaradi.*

● *Ko'pchilikda hamkasblar bilan yuzma-yuz muloqotga zarurat tug'iladi.*

● *Bo'lishi mumkin, ko'proq korxonalar uyda turib ishlashni qo'llab-quvvatlashadi.*

● *Vaziyat shuni taqozo etadiki, muayyan kishilar o'zlari mustaqil ish olib borishni yoqlashadi.*

Agar fikrlaringizni faktlar bilan to'ldirmoqchi bo'lsangiz, quyidagidek birikmalardan foydalaning:

Emersonning fikricha (2003), rivojlangan prinsiplarga ega kompaniyalar kamchilikni tashkil etadi. Poledna (2007) ta'kidlaydiki, aksariyat xodimlar qulay ish jarayonida mehnat unumdorligiga erishadilar.

Qarshi fikrlar

Qarshi fikrlar qarashlarga teskari bo'lishi mumkin. Mavzuni ilmiy muhokama qilayotganda masalaning ikkala tomoni haqida ham qarashlarni bildirib, o'z fikrlaringizni dalillar bilan qo'llab-quvvatlashingiz lozim. Odatda, o'z g'oyangizni taqdim etishdan avval unga teskari bo'lgan qarashlarni keltirish ma'qulroq.

Qamoqxonalar mavzusida yozilgan quyidagi misolda muallifning munosabati qanday?

Ma'lumki, qamoqxonalar xavfli jinoyatchilarni qamash va ularga mos jazoni qo'llash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Bu ma'lum holatlarda to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin shu bilan birga ular ko'pincha "jinoyat universitetlari" sifatida jinoiy xatti-harakatlarni jadallashtirishga ham xizmat qiladi. Mahbuslarning hammasi ham xavfli emas va boshqa vositalar orqali ularga samarali ta'sir qilish mumkin.

Esselar ham, hisobotlar ham o'z ichiga batafsil ravishda ko'rib chiqilgan aniq vaziyatlarni misol tariqasida olishi mumkin. Bir aniq vaziyat essening asosiy mavzusi bo'lishi yoki esse har xil vaziyatlarni ko'rsatish uchun bir necha misollarga ega bo'lishi mumkin.

Yo'l tirbandligi qanday qilib kamaytiriladi?

Muammo: Amaldagi yo'llar ko'pincha tirband bo'ladi, ular kechiktirish bilan birga odamlar harakati va yuklarini qimmatlashtiradi. Ko'pincha ko'proq yo'llarni qurish yoki mavjudlarini kengaytirish harakat tirbandligini kamaytiradi, deb hisoblanadi. Nafaqat bunday ishning bahosi baland, balki qurilish jarayoni tirbandlikni oshiradi, qo'shimcha yo'llar qo'shimcha yo'l harakatlarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ko'p yo'llarni qurish bu muammoni yechishni ehtimoldan yiroq qiladi va boshqa choralar, masalan, yo'l narxini baholash yoki jamoat transportlaridan kengroq foydalanishni sinab ko'rish kerak.

Yechim A: Ko'pincha ko'proq yo'llarni qurish yoki mavjudlarini kengaytirish harakat tirbandligini kamaytiradi deb hisoblanadi.

Yechim Aga qarshi sabab: Nafaqat bunday ishning bahosi baland, balki qurilish jarayoni tirbandlikni oshiradi, qo'shimcha yo'llar qo'shimcha yo'l harakatlarini keltirib chiqaradi.

B va C yechimlarni qo'llaydigan xulosa:... boshqa choralar, masalan, yo'l narxini baholash yoki jamoat transportlaridan kengroq foydalanishni sinab ko'rilishi kerak.

1. Tanlov strukturalari

Bir xil fikrlar turli xil yechimlarga olib kelishi mumkin. Yo'l tirbandligi qanday qilib kamaytiriladi?

Muammo: Amaldagi yo'llar ko'pincha tirband bo'ladi, bu esa odamlar harakati va yuklarini qimmatlashtiradi.

Yechim A: ko'pincha ko'proq yo'llarni qurish yoki mavjudlarini kengaytirish harakat tirbandligini kamaytiradi deb hisoblanadi.

Yechim Aga qarshi sabab: Bu chora qimmat bo'lishni ta'minlaydi va ko'proq yo'llardan foydalanishga undaydi. Bu masala qisman to'g'ri...

B va C yechimlar va qarshi sabablar: ... biroq alternativlar teng ravishda muammoli. Yo'l baholashning ko'p amaliy qiyinchiliklari bo'lgan paytda odamlar xohishsiz jamoat transportlaridan foydalanishadi.

A yechimni qo'llaydigan xulosa: Bunda esa yo'l tartibsizligidan tashqari yo'l qurish dasturiga juda oz tanlov paydo bo'ladi.

1. So'z boyligi.

Quyidagi so'zlardan muammo va yechim uchun sinonim sifatida foydalanilishi mumkin.

- yangi jarayon 2ta savol yaratdi ...
- jamoa 6ta muammoga yuzlandi ...

- bizning asosiy tashvishimiz ... boʻlgan
- buning uchun eng yaxshi chora boʻlishi mumkin ...
- boshqa taklif bu ...
- Mathesonning taklifi nihoyat qabul qilindi ...
- bu xato ... tomonidan tuzatildi/yechildi
- 2 ta javob olgʻa surildi
- turgʻunlik mobaynidagi tashvishlardan biri ...
- asosiy qiyinchilikka hamshiralar uchraydi ...
- 3 ta asosiy qiyinchiliklar koʻtarildi ...

31-topshiriq. Ajratib yoziladigan soʻzlarni aniqlab koʻchiring.

Yolgʻiz//oyoq, achchiq//tosh, mol//boqar, har//kim, hech//qaysi, doʻst//dushman, qirq//oyoq, Muhabbat//noma, osma//koʻprik, bilak//uzuk, u//bu, mana//bu, ana//u, bahs//munozara, otash//arava, hamma//yoq, qirq//besh, oʻn//bir, ikki//ming, ser//soqol, qabul//qilmoq, bayon//etmoq, himoya//qilmoq, Shimoliy//Amerika, bu//gal, har//safar, necha//marta, bu//kun, tor//mor, yuz//yil, alla//qayoqda, alla//kim, bera//oladi, ayta//oladi, bir//xil, har//xil, uy//joy.

Mustaqil taʼlim.

1. Esse yozish.

14-mavzu: Mutaxassislik matni ustida ishlash

Ixtisoslikka oid matnlar.

Ogʻzaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Ixtisoslikka oid matnga termin tanlash.

Ixtisoslikka oid matn tuzishda esa quyidagilarga eʼtiborni qaratish lozim:

Ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga eʼtibor berish zarur:

- nutq uslubini toʻgʻri tanlash;
- imlo qoidalariga eʼtibor berish;
- nomaʼlum termin larning izohini berish;
- oʻrinsiz takrorlarga yoʻl qoʻymaslik;
- ixtisoslikka oid terminlardan oʻrinli foydalanish.

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid soʻz va shartli belgilarni toʻgʻri tanlay olish va oʻrinli joylashtirish;
- soʻz va terminlarni imlo meʼyorlariga rioya qilgan holda yozish;
- tanish boʻlmagan yoki faol qoʻllanmaydigan termin, shartli belgi yoki

qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;

- ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan o'zlashtirish va so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;

-terminlarni o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish va boshqalar.

Umuman ixtisoslikka oid so'z va terminlarni to'g'ri tanlash hamda qo'llash nutq madaniyatining, kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi. So'z va termin tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

Matn tuzishda so'z va terminlarga alohida ahamiyat berish lozim. So'zlarning lug'aviy ma'nosini bilgan holda ishlatish, terminlarni to'g'ri va to'liq talaffuz eta olish, matnga mos terminni tanlash kerak.

- tanlangan terminni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

- so'zning, terminning tushunarli bo'lishini hisobga olish;

- terminning ma'no xususiyatiga asoslanib, uni maqsadga muvofiq tarzda tanlash;

- baynalmilal terminlarni adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq holda tanlash;

- terminni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;

- so'z va terminni matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

32-topshiriq. Ixtisosligingiz bo'yicha matn tuzing va undagi atamalarni izohlang.

33-topshiriq. Qo'shib yoziladigan so'zlarni aniqlab ko'chiring.

Lashkar//boshi, uch//to'rt, ustma//ust, qiyma//taxta, bahs-munozara, o'rin//bosar, cho'l//yalpiz, qo'l//qop, ming//buloq, ish//xona, piyoz//gul, qashqar//gul, sarimsoq//piyoz, tavsif//noma, dardi//bedavo, nuqtayi//nazar, shifo//baxsh, orom//baxsh, oshna//og'ayni, bad//baxt, O'rta//Osiyo, qovuntarvuz, Yangi//yo'l, bodom//qovoq, makka//jo'xori.

Mustaqil ta'lim

1. Ixtisosligingiz bo'yicha maqola o'qing va undagi atamalarni izohlang.
2. Sa'diy Sheroziyning "Hikoyat"ini o'qing va nasriy bayonini yozing.

Hikoyat

Sotardi asal bir shirin so'z kishi,
Ko'ngilni ovlardi uning royishi.

Shakarqamichidek beli belbog‘dor,
Molini pashshadek talar xaridor.

Uning moli zahar bo‘lsa ham tugal,
Talab ketishardi misoli asal.

Bir dag‘al ko‘z tashlab el g‘avg‘osiga,
Hasad bilan boqib bol savdosiga.

Ertasiga barvaqt bozorga keldi,
Asal sotmoq bo‘lib, har yoqqa yeldi.

Kattakon qovoqda boshida asal,
Badburush bashara, so‘zlari dag‘al.

“Asal ketdi” deya qildi mashmasha,
Boliga qo‘nmadi hattoki pashsha.

Kechgacha bir pullik qilolmay savdo,
Uyga qaytar zindoniy bo‘lgandek tajang.

Xotini ustidan sho‘x so‘zlab kular:
«Badjahl qo‘lida asal ham zahar!»

Yomon xulq do‘zaxga sudraydi oson,
Yaxshi xulq behisht-u jannatdan nishon.

Ariqda iliq suv bo‘lsa shuni ich,
Dag‘al kishi yaxna sharbatidan kech.

Serzarda kishining manglayi tirish,
Haromdir undaylar nonini yeyish.

Badxulq qiyinlikka uchrar aksari,
Badxulqning doimo baxti teskari.

Bo‘lmasa ham mayli mol, dunyo, puling,
Sa‘diy kabi bo‘lsin asaldek tiling.

**15-mavzu: O‘zbekiston va jahon.
“BMT va xalqaro burchlar” matni.
Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari.**

**Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida
qo‘llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.**

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).
2. Idoraviy — devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro‘yobga chiqadi. U har qanday tasviriylar vositalardan, obrazlilikdan xoli bo‘ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi — axborot uzatish va da‘vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma’lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da‘vat etish, axborot o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o‘ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe‘llar orqali ifodalanadi (ogohlantirilsin, topshirilsin kabi). Ma’lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi. Rasmiy ish qog‘ozlarining sintaktik tuzilishi qat’iy qoliplarga bo‘ysunadi. Masalan, «Ushbu ma’lumotnomani ko‘rsatuvchi G‘.Mo‘minov haqiqatan ham O‘zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o‘rinbosari lavozimida ishlaydi...».

34-topshiriq. Ariza namunasini o‘qing. Siz ham o‘zingizga moslab shu asosda ariza yozishga odatlaning.

N a m u n a:

	Asaka akademik litseyi direktori D.Mo‘minovga 2-bosqich talabasi M. Abdullayevdan
--	--

A r i z a

2016-yilning 4-6-aprel kunlari Chirchiq shahrida respublika birinchiligi uchun boks bo‘yicha o‘tkazilayotgan musobaqalarda ishtirok etishim uchun ruxsat berishingizni hamda ko‘rsatilgan kunlarda darslardan ozod qilishingizni so‘rayman.

(imzo) M.Abdullayev
2016-yil 2-aprel

**35-topshiriq. “Menyu” texnologiyasi asosida ishlash.
Quyidagi soʻzlar asosida matn yarating.**

- 1-guruh: vatan, ziyoli, davlat, mushkul, kambagʻal, bozor
2-guruh: vatanparvarlik, sport, dars, quruvchi, oq, dala
3-guruh: mashhur, farzand, Prezident, besamar, daryo, muz.

**16-mavzu: XXI asrda innovatsiyalar.
“Kashfiyotlar va ixtirolar” matni.
Ilmiy uslub va uning xususiyatlari**

Ilm-fan sohasida qoʻllaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy maʼlumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (taʼrif-qoidalarga) ega boʻlish, atamalarining keng qoʻllanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham oʻz ichida ikki guruhga boʻlinadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qoʻllaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning maʼlum sohasiga doir atamalar keng qoʻllaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq boʻladi. Maʼlum fan sohasiga doir atamalar qoʻllanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli boʻlishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning oʻzi ham fan tarmoqlari boʻyicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli boʻladi.

Savol va topshiriqlar

1. Rasmiy uslub nima?
2. Rasmiy uslubning qanday turlarini bilasiz?
3. Rasmiy uslubning oʻziga xos tomonlari haqida gapiring.
4. Ilmiy uslub deganda qanday uslubni tushunasiz?
5. Ilmiy uslubning oʻziga xos belgilari qanday?

6. Ilmiy uslubning qanday turlari bor?

36-topshiriq. Matnni o'qing, ilmiy uslubga xos bo'lgan o'rinlarga diqqat qilib ularni izohlang.

Bakteriyalarni o'ldiradigan va organizmni yuqumli kasalliklarga qarshi chidamli qiladigan moddalar qonda bo'ladi .

Leykotsit tarkibidagi leykin ham bakteriyalarni o'ldiradi. Shuningdek, leykinga o'xshash plakin degan modda qon trombositlaridan ajratib olinadi.

Qonning tabiiy muhofaza moddalaridan biri betalizin hisoblanadi.

Mana shulardan tashqari, qon va organizm suyuqliklarida «ingibitorlar» deb atalgan moddalar ham topilgan. Ular mikroblarning rivojlanishini va ko'payishini to'xtatibgina qolmay, balki viruslarga qarshi g'oyatda faol ta'sir qiladi. Chunonchi, nukleazalar oqsil tabiatli fermentativ moddalar bo'lib, nuklein kislotalarni parchalaydi. Shunisi ham borki, ribonuklein kislota RNKning faqat ribonukleaza fermenti, dezoksiribonuklein esa DNKning dezoksiribonukleaza fermentinigina parchalaydi.

37-topshiriq. Kashfiyotlar haqidagi quyida berilgan matnlarni o'zbek tiliga o'giring.

Топ-10 детских изобретений, изменивших мир

Увидеть будущее можно, не пользуясь хитроумными приборами - тем более, машину времени, как известно, еще не изобрели. И сделать это довольно просто - при условии, что между вами и тем, что вокруг, еще не выросла броня запретов, знаний и опыта. А она, к несчастью, появляется очень быстро – где-то с 18-летия. Процесс этот неизбежный и болезненный, поэтому единственное, что остается, нам, «опытным» - положиться на детей. Уж они-то не теряют хватки и порой делают удивительные открытия. Вы удивитесь, но очень многое из того, чем мы пользуемся каждый день, придумали именно дети - от калькулятора до зарядки для вашего телефона.

Одним из первых таких юных гениев стал отец-основатель Соединенных Штатов – Бенджамин Франклин. Изобретательством он начал баловаться с 12 лет, когда соорудил первые в мире ласты – правда, те были деревянными и надевались и на ноги, и на руки. В одночасье став кумиром среди сверстников и первым пловцом среди них же, Бенджамин пошел еще дальше и изобрел бифокальные линзы,

печь без дыма, новую разновидность стеклянной гармоники и еще немало удивительных вещей. Главным его изобретением стали, конечно, США – точнее, американская Декларация независимости, в создании которой Франклин принял самое непосредственное участие.

Собственно, с тех пор в день рождения этого изобретателя, 17 января каждого года, и отмечается международный День детских изобретений. «МИР24» вспомнил 10 выдающихся маленьких выдумщиков, чьи идеи сделали наш мир лучше.

Водные лыжи

Отсутствие идейных границ у детей порой рождает вещи, придумать которые взрослые просто не в силах. Так, 18-летний подросток Ральф Самуэльсон однажды задался вопросом: «Почему лыжи едут по снегу и только?» В качестве альтернативы снегу была выбрана вода, на которую он, собственно, и поставил зимние лыжи. Со временем конструкция усовершенствовалась, лыжи стали шире, крепления претерпели определенные метаморфозы, и местные ребята, опробовав изобретение, пребывали в диком восторге.

Однако запатентовать свое изобретение молодому американцу так и не удалось, зато в историю он вошел как первый водный лыжник мира.

Калькулятор

Интеллектуальное брожение XVII века привело к появлению огромного количества новаторских идей. Одной из них стала первая считающая, суммирующая или вычислительная машинка – проще говоря, калькулятор. Изобрел его небезызвестный Блез Паскаль, имя которого сегодня все больше вспоминают по языку программирования PASCAL. 18-летний изобретатель решил помочь своему отцу, сборщику налогов, и упростить его работу. Юноша сконструировал необычную машину, снабженную сцепляющимися зубчатыми колесами, которая могла оперировать большими числами. Однако эта новинка под скромным именем Pascaloine никого не заинтересовала, и первый в истории калькулятор вынужден был еще три века пролежать на полке.

Детские автомобили

Детские машинки из супермаркета, на которых малыши рассекают между стеллажей и полок на первый взгляд – изобретение не самое яркое. Однако же история их создания поражает своей теплотой. Случилась она в конце прошлого столетия в одной из американских детских больниц: шестилетний Спенсер Уэйл никак не мог усидеть на месте и вместо того, чтобы в очередной раз доставать родителей истериками по поводу больничной скуки, просто предложил сделать капельницу двигающейся.

Ажиотаж вокруг идеи Спесера быстро набрал обороты, благодаря чему и появились первые больничные машинки, внутри которых была спрятана капельница и система передвижения. Спустя всего несколько лет предприимчивые маркетологи интегрировали эту задумку в магазины, радуя детишек и избавляя их родителей от лишних хлопот.

Меховые наушники

В конце XIX столетия своенравный и талантливый Честер Гринвуд, мальчик из многодетной семьи, отправился с друзьями на каток. Мороз на улице стоял лютый, и уши все время замерзали, заставляя ребят то и дело возвращаться домой. Честер, всем сердцем ненавидящий головные уборы и шарфы, уговорил свою бабушку на сделку – соорудить нечто, что греет уши, но при этом не является ни шапкой ни шарфом, ни чем-либо еще привычным для того времени.

Так к концам проволоочной петли он прикрепил по кусочку меха и водрузил эту конструкцию на голову. Самодельные наушники произвели на его друзей такое впечатление, что 15-летнего подростка тут же нарекли местным «дизайнером» и попросили создать каждому из ребят парочку уникальных наушников.

Фруктовый лед

В данном случае осознанный эксперимент уступил место случайности – основе основ любого открытия. В далеком 1905 году 11-летний Фрэнк Ипперсон из небольшого калифорнийского городка приготовил себе шипучку и отправился с ней на улицу. Как и все дети, увлекшись чем-то более интересным, он оставил стакан на холоде и вовсе позабыл о содержимом.

Удивлению не было предела, когда наутро Ипперсон обнаружил новое лакомство, не похожее ни на один из тех продуктов, который

он пробовал раньше. Кусочек цветного льда на палочке, которую ребенок тут же приспособил к десерту, оказался настолько вкусным, что уже через год фруктовым льдом производства Ипперсона объедались все посетители местных парков и театров. Еще через несколько лет лакомство получило патент и вышло за пределы одной страны.

Снегоход

Канадский парень Жозеф Арман Бомбардье в конце прошлого столетия, вероятно, не любивший американский автопром, в возрасте 15 лет разобрал старый отцовский фورد и соорудил из него первый в мире прообраз снегохода.

Конструкция получилась необычной: двухместные сани с пропеллером, вращающимся при помощи приводного вала двигателя. Еще несколько попыток усовершенствовать свой снегоход привели к тому, что снегоход стал гораздо устойчивее, в нем появилось управляющее колесо с цепью, и, конечно, более удобные сиденья.

Практически в этом виде через пару лет снегоход и вышел сначала на государственный, а потом и на мировой рынок. Сегодня же фирма под имени *Bombardier* производит еще и трамваи, железнодорожные составы и даже самолеты.

Экспресс-зарядка для телефона

Единственная девушка из нашего списка совершила ни много ни мало технический прорыв. 18-летняя американка Эйша Кхаре сконструировала экспресс-зарядку для телефона, которая заряжает любой гаджет всего за несколько минут. Почему до этого не додумались мировые умы, то и дело выбрасывающие на прилавки тысячи новых моделей того или иного девайса – вопрос тяжелый.

Однако знакомство девушки с нано-частицами, благодаря которым, собственно и получилось изобретение, привели к этому открытию именно ее. Вдохновением же послужила банальнейшая из бытовых проблем – телефон, словно по волшебству, разряжающийся в самый неподходящий для того момент.

Диагностика рака

15-летний гениальный американец по имени Джек Андрак сделал невозможное. Врачи до сих пор ведут яркие дискуссии по поводу его

«неоднозначного» изобретения, однако вклада подростка в мировую медицину это не умаляет.

Парень просто придумал, как быстро и бюджетно определить начальную стадию рака поджелудочной железы. Итогом его научных исканий в этой области стал небольшой измерительный прибор (по виду напоминающий айпод), который в течение пяти минут определяет наличие или отсутствие болезни. Исключительность его состоит в том, что он, не потеряв в точности показаний, оказался в 168 раз быстрее своих аналогов и в 26 000 раз их дешевле (и это вовсе не описка).


Телевидение

Пионер электронного телевидения Фило Фарнсуорт с младых лет увлекался электроникой и механикой. В далеком 1922 году в возрасте 15 лет он даже подарил идею создания диссекторной трубки своему учителю химии. Парень предложил отказаться от традиционного диска с проекцией изображения на экран и задумал воспроизводить его в электронном виде.

Однако, несмотря на гениальную идею, реализацию ее пришлось отложить на 4 года, за которые Фило усовершенствовал свое изобретение со всех ракурсов. В дальнейшем, правда, патентная война и преследования инвесторов заставили молодого гения продать права на изобретение, однако это не отняло его гордого звания одного из родоначальников современного телевидения.

Шрифт Брайля

Что мы знаем о легендарном Луи Брайле? Скорее всего, только его



имя и тот факт, что этот человек изобрел азбуку для слепых. Если помыслить логически, еще можно предположить, что он и сам был незрячим. Вот собственно и все, однако мало кому известно, что это изобретение было сделано им в возрасте всего 15 лет.

Действительно, последствия перенесенной автокатастрофы сказались на зрении маленького изобретателя, и к пяти годам он полностью ослеп, однако это никак не мешало его желанию учиться и развиваться. Прочитав все 14 книг для слепых, которые были в его школе, мальчик решил изменить историю осязательной литературы.

Вдохновил его армейский язык из кодов и точек, который Брайль изучил уже в 13 лет. К 15-ти же он создал полноценный тактильный рельефно-точечный шрифт, символы которого можно распознать одним касанием пальца.

Mustaqil ta'lim

1. Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan kashfiyotlar haqida ma'lumot to'plash va so'zlashga tayyorlanish.

17-mavzu: *Davrimizning global muammolari.*

“Tabiatni asrash” matni.

Maqola va uning turlari

Dastlab maqola yozishni katta to'rtta bo'limga bo'lish mumkin, bular:

TUSHUNTIRUVCHI – bu turdagi maqola yozishdan juda ko'p foydalaniladi. Siz bu turda maqola yozganingizda, sizning barcha qilayotgan harakatlaringiz o'quvchilaringizga maqsadni tushuntirish, ma'lumotni yetkazib berishdan iborat.

Tushuntirish usulida siz o'z fikrlaringizni yozmaysiz, lekin, biron mavzu haqidagi faktlarni keltirasiz, masalan: statistika va dalillarni ko'rsatishingiz mumkin.

Quyida siz foydalanishingiz mumkin bo'lgan maqola turlari namunalari.

1. Yangiliklar haqidagi maqolalar.
2. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar ya'ni pog'onama-pog'ona tushuntirish usuli.
3. Biznes, texnik va ilmiy yozishlar.
4. Tayyorlash usullari haqidagi maqolalar.
5. Savol-javob bilan tushuntirish.

TASVIRLOVCHI – Siz tasvirlovchi turida maqola yozganingizda, o'quvchilaringiz bilan o'z taassurotlaringizni bo'lishasiz. Bu turda sizning maqsadingiz o'quvchilarni biron narsaga ishontirish emas, balki ularga nimani eshitsangiz, nimani ko'rsangiz, umuman olganda, berayotgan ma'lumotingiz qanday bo'lsa, shunday yozishdan iborat.

Tasvirlash usulida yozishning namunalari:

1. Biron programmaning imkoniyati haqida maqolalar.
2. O'zingiz yaxshi ko'rgan kitob haqida maqolalar.
3. Yangi mashina haqida maqolalar.
4. O'rganish jarayonida orttirgan tajribangiz haqida maqolalar.

ISHONTIRUVCHI – Siz bu turda maqola yozsangiz, sizning maqsadingiz o‘quvchilaringizni berayotgan ma’lumotingizga ishontirishdan iborat bo‘ladi. Bunda, siz o‘z fikrlaringizni, asoslaringizni va sabablaringizni kiritishingiz mumkin.

Ikkita narsa o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish, ya’ni foydali va foydasiz tomonlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilaringizni ishontirishingiz mumkin.

HIKOYA – hikoya turida yozishni ko‘p uchratamiz, badiiy yoki badiiy bo‘lmagan holatda ham. Siz bu turda maqola yozganingizda, siz shunchaki ma’lumot yetkazib berishga urinmaysiz, balki, hikoyani yaratish va muloqot qilishga harakat qilasiz va yana uni belgilar va sozlamalar bilan to‘ldirishga harakat qilasiz. Ba’zan tajribalaringiz haqida kichik hikoya yozib ma’lumot yetkazib berishingiz mumkin.

Foydalanish namunalari:

1. Biron ish haqida qisqa hikoyalar.
2. Maqola o‘rtasida bu turdan foydalanib ketishingiz mumkin.
3. Mini kitoblar yozishda.

Yuqorida maqola yozish turlarini iloji boricha kengroq miqyosda ko‘rsatish ga harakat qildik. Har bir maqolangizning o‘z maqsadi bor va shunga qarab bu turlardan foydalaning.

38-topshiriq. Mavzu bo‘yicha “Debat” texnologiyasi.

39-topshiriq. Zarur o‘rinlarga **a** yoki **o** harflarini qo‘yib ko‘chiring.

D...vlat, d...vomat, g...vda, s...xovat, V...hob, b...roq, q...ror, bobok...lon, lol...zor, muv...ffaqiyat, mu...mala, n...hor, t...moq, s...vob, mom...qaldiraq, p...yon, r...voq, tal...fot, f...rovon, z...vq, h...lovat, k...nstitutsiya, m...rfologiya, k...mpaniya, q...rovul, n...vkar.

40-toipshiriq. Nuqtalar o‘rniga **i** yoki **u** harflarini qo‘yib ko‘chiring.

Shov...llamoq, nuf...s, gur...h, xurj...n, rus...m, sov...n, tush...ntirmoq, uch...n, tov...q, turk...m, suk...t, uz...lmoq, kul...msiramoq, guv...llagan, dur...st, uz...m, gavj...m, yoz...vchi, o‘qit...vchi, tur...b, q...choqlamoq, uz...b, mush...k, uchq...n, un...mli, bug...n, dov...l, konst...tutsiya, Movaro...nnahr, qorov...l, beg...noh, q...log‘iga, tush...b, uz...n, vuj...d.

Mustaqil ta’lim

1. Davrimizning global muammolari haqida maqola yozish va uni taqdim etish.

18-mavzu: Ixtisoslik tili ustida ishlash.

Ixtisoslikka oid matnlar.

Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

Intervyu – jurnalistika janri bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxs bilan suhbatni o‘zida aks ettiradi. Ijtimoiy ahamiyatli shaxs – o‘ziga xos shaxsiy sifatlari bilan o‘z mavqeyida muvaffaqiyatga erishgan, mashhur shaxsdir. Intervyu olishning o‘nta muhim jihati bo‘lib, ular quyidagilardir:

1. Aniq va lo‘nda savol bering. Har bir savol ma‘lum bir muammoni hal qilish uchun yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

2. Suhbatdoshga ochiq savollar bering, savolning javobi “ha” yoki “yo‘q” bo‘lmasligi kerak.

3. Suhbatdosh imkon qadar sizga ko‘proq ma‘lumot berishi uchun birdaniga jiddiy savollar bilan boshlamang. Dastlab kirish suhbatini o‘tkazib oling, asosiy savollarni uchinchi yoki to‘rtinchi o‘rinda bering.

4. Savol o‘zbek adabiy tilida, xatolarsiz berilishi lozim. Savolni “nima uchun”, “qanday”, “qanday maqsadda” kabi so‘zlar bilan boshlang. Bu suhbatdoshni savol ustida o‘ylashiga imkon beradi va natijada javob batafsil bo‘ladi.

5. Javobni diqat bilan eshitib. Javobni o‘zingiz oldindan o‘ylab qo‘ymang. Savolning javobi siz o‘ylaganingizdan ham ko‘ra qiziqarli, yangi bo‘lishi mumkin.

6. Suhbatdoshingizning fikrini bo‘lmang, unga gapirib olish imkonini bering. Suhbatdosh mavzudan chetga chiqib ketgan holdagina uni muloyimlik bilan to‘xtatish mumkin.

7. Buzg‘unchilik yo‘nalishlardagi savollar taqiqlanadi.

8. Intervyuni oddiy oshna-og‘aynichilik suhbatiga aylantirib yubormang. Chegarani saqlang.

9. Jurnalstning asosiy uch xotira “zanjir”ini esda saqlang. Fikr. Intervyu olishdan oldin bu nima uchun kerakligini o‘ylab ko‘ring. Shaxs. Suhbatdosh shaxsini hurmat qiling, bema‘ni savollar bermang. Qiziqish. Intervyu mazmuni nafaqat sizga, balki tomoshabinlarga ham qiziqarli bo‘lishi kerak.

10. Xato qilib qo‘yishdan qo‘rqmang. Aqlli suhbatdosh xatolarni payqamaydi yoki madaniyat bilan unga shama qiladi va to‘g‘ri javob beradi. Foydali maslahatlarga amal qilgan holda siz har qanday suhbatdoshdan osonlik bilan intervyu olasiz. Shuning uchun bu o‘ziga xos bolgan jurnalistik janrni dadillik bilan qo‘llab ko‘ring.

41-topshiriq. “Intervyu” mashqi.

42-topshiriq. Xato yozilgan soʻzlarni aniqlab koʻchiring.

1. Terim surati jadallashmoqda. 2. Oʻgʻilining ham oʻzi kabi boʻlmogʻi-chun Mamaniyoz sarif qilarkan butin kuchin. (GʻGʻ.) 3. Kegin butunlay boshqa hoʻjalik yerlarida ekanini faxmlab, matasiklni orqaga burdi. (O.Y) 4. Murot semiz boʻlgani bilan chaqon edi. (T.Malik.) 5. Gazeta muxarriri va buyerda oʻtirgan boshqalar xam shu gapni maqullashdi. (A.Q.) 6. Ulkan yaltiroq boshini ostitirib oʻtirgan domla lommim demadi. (O.Y) 7. Oqshom lampalarining hira nurida ishchilar toʻshaklariga chuzilib, dam olaboshladilar. (O.) 8. Darvoqi, buorada boshqa bazi muxim oʻzgarishlar ham roʻy bergan edi. (R.T)

43-topshiriq. Koʻchirish qoidalariga zid ravishda qismlarga ajratilgan soʻzlarni belgilang va ularni toʻgʻrilab daftaringizga koʻchiring.

Ma-shhur, mun-o-sa-bat, qitʻ-a, lek-in, bor-in-giz, u-ka-la-ri, tran-sport, vaʻ-da, Oz-MU, diag-ram-ma, ko-ngress, bu-nga, oʻz-ing-ga, qil-ish, kel-tir-ing, qi-sm, koʻp-ay-tir-ish, foy-da-lan-ish, e-kish, a-rab, a-lo-mat-i, fi-kr-lash, qism-i-dan, do-imo.

Mustaqil taʼlim

1. Intervyu tayyorlash.

2. Erkin Vohidovning “Rular isyoni” dostonidan olingan parchani rasmda aks ettiring va soʻzlashga tayyorlaning.

Jaholat toʻgʻrisida rivoyat

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatlik zamonda,
Bir donishmand
 Ulugʻ hakim
Oʻtgan ekan jahonda.
U kun boʻyi
Giyoh terib
Kezib togʻ-u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga
Ming bir mushkul dardning
Ayon boʻlib daʼvosi,

Bora-bora
Odamlarning
Ortaverdi ixlosi.
Tabobatga
Qalban, ruhan
Fido qilib oʻzini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish koʻrning koʻzini.
Rivoj topmish
Sohib hikmat,
Donish, mehnat madadkor,
Ammo
Qayda boʻlsa shuhrat,
Yonboshida

Hasad bor. Duoxonlar,
 parixonlar,
 O'quvchilar chilyosin...
 Xullas,
 Yurtda bor nodonlar
 Boshladilar ig'vosin.
 Tinmay
 Kecha-yu kunduzi
 Topib Nabi so'zidan.
 Dedilar:
 "dard bergan –
 O'zi!
 Davosi ham
 O'zidan!
 Bandasiga bermak doru
 Yaratganga isyondur.
 Demak,
 Hakim ishi makr-u,
 Uning o'zi
 shaytondir".
 Bu so'zlarni
 Chin deb bildi
 Nodon, johil olomon.
 Donishmandni sazo qildi,
 Kaltakladi beomon.
 Cho'g' temirda
 Ko'ksin dog'lab,
 Dorga osmoq bo'ldilar.
 Keyin
 Suvni, arqonni ham
 Hayf bildilar
 "shayton"ga.
 "yoqing, - dedi
 Eng bosh hakam, -
 Olib chiqib maydonga!"
 Keng maydonga
 Ko'mib ustun,
 Bog'ladilar hakimni,
 So'ng temirni o'tga qo'yib,

Dog'ladilar hakimni.
 Buyurdilar:
 "Yoqing shitob,
 Azozilning oshnasin.
 Kerak bo'lsa
 Kimga savob,
 Cho'p keltirib tashlasin".
 Savob uchun
 Birov o'tin.
 Birov tashlardonas xas.
 Hakim
 Boshin baland tutib
 Johil elga qaramas.
 Bir payt
 Gulxan sari bir chol
 Asta kela boshladi.
 Quchoq'ida bir bog'poxol,
 G'aram uzra tashladi.
 Dedi:
 "Asli tug'ilgandan
 Basir edim men o'zim.
 Sen joduning tig'i bilan
 Ochib qo'yding ko'r ko'zim.
 Yaratgan ko'r,
 Da'vo qilding ne uchun?
 So'roqda men –
 Manglayi sho'r –
 Nima deyman
 Mahshar kun?
 Haq yo'lidan ozgan odam,
 Ko'zim ochib
 ne berding?
 Meni bir yo'l
 U dunyo ham –
 Bu dunyodan ayirding.
 Ko'rligimda
 Bu olamni
 Tasavvurda ko'rardim.
 Dunyodagi bor odamni

Mushfiq bilib yurardim.
 Shafqat ila
 Kim non-u kim
 Chaqa tashlab ketardi.
 Men ham
 shunga ko'ngan
 edim,
 menga shu ham yetardi.
 Qornim to'ysa –
 Saodatim,
 Yo'q tuman xil tilaklar.
 Hamsuhbatim,
 Ham ulfatim
 Jajji shirin go'daklar...
 O'ylar edim:
 Dunyoda bor
 Musaffolik, soddalik.
 Ko'zim ochib
 Ko'rdim ilk bor
 Berahmlik,
 Soxtalik.
 O'g'rilik-u fahshni ko`rib,
 Jim yurarkan odamlar.
 O'z do'stiga
 Kulib turib,
 Tig' urarkan odamlar.
 Bir yonda aysh
 Ko'kka chirmash,
 Bir yonda
 Boq
 Oh-u voh...
 Bukun mening
 Ko'nglimda g'ash,
 Imonimda ishtiboh.
 Derdim:
 Yurtni bir bor ko'rsam.
 Ko'rdim.
 Orzum to'q endi.
 Yo'lda yotgan

Ko'rchalik ham
 E'tiborim yo'q endi.
 Bu dunyodan to'ydim oxir,
 Ado bo'lsam mayliga.
 Yo qaytadan
 O'sha basir,
 Gado bo'lsam mayliga!"
 Bu so'zlarni
 Eshitdi-yu
 Faryod qildi donishmand.
 "Yoqing, -"
 Deya so'radi u, -
 Olov bo'lsin sarbaland.
 Tezroq ketay
 Bu dunyodan,
 Hech toqatim qolmadi.
 Mendan shifo oldi odam,
 Olam – shifo olmadi.
 Xurofotning zahri tekkan
 Nodon,
 Johil,
 Gumrohlar –
 Davosiga ojiz ekan
 Men kashf etgan giyohlar.
 Ko'r ko'zlarga
 Mehrgiyodek
 Nur baxsh etdi
 Nashtarim.
 Qalblar ko'zin
 Ochmoqqa lek
 Kamlik qildi
 Hunarim.
 Odamlarga men
 Yaxshilik –
 qilmoq bo'ldim,
 netayin,
 manglayda shu ekan
 bitik,
 yoqing,

kuyib ketayin!”
o‘t qo‘ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo‘ldi samovot.
Jaholatning hukmi bilan
Qurbon bo‘ldi
Buyuk zot.
Gulxan yondi
Ko‘kka o‘rlab.
Cho‘g‘i har yon sochildi.
Shu olovdan
Elning ajab,
Aql ko‘zi ochildi.

O‘kindilar.
Aza tutib
Yig‘ladilar, kuydilar.
Donishmandga
Yillar o‘tib
Oltin haykal qo‘ydilar.
E voh,
Olim ko‘zi bilan
Ko‘rsaydi bu hurmatni,
Ammo
Hakim o‘zi bilan
Olib ketdi hikmatni.

19-mavzu: Inson va salomatlik.

“Sog‘liqni saqlash” matni.

Reportaj tayyorlash.

Bir qarashda, axborot tushunchasini aniqlab olish qiyin emas: bu bugungi kunda jamiyatda sodir bo‘layotgan voqealar haqidagi xabardir. Muxbir — sodir bo‘layotgan ushbu voqealarning oddiy kuzatuvchisi yoki hikoya qilib beruvchisidir, deb o‘ylash noto‘g‘ri, albatta. Muxbir tom ma’noda o‘sha, yetkazib berilayotgan xabarning ijodkori, yaratuvchisidir.

“Yangiliklar industriyasi” jamiyatning siyosiy, iqtisodiy hayotida ham, madaniy va ijtimoiy jarayonlarida ham doimo asosiy o‘rinni egallab kelgan.

Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarida jurnalistik yangiliklar asosan dushman qo‘shinini chalg‘itish maqsadida ishlatilgan. Mustabidlik davrida siyosiy doiralarning birgina ishorasi bilan matbuot o‘quvchilar ommasiga juda katta g‘oyaviy ta’sir o‘tkazgan va buning uchun doimo “muhim” bo‘lgan yangiliklar ishlatilgan.

Jahonda ko‘p voqealar bo‘lib o‘tadi va jurnalistlarning asosiy vazifasi shu voqealarning to‘liq tasvirini keng o‘quvchi ommasiga havola etishdan iboratdir. Aynan shu ma’lumotlar yordamida inson atrofidagi dunyoni taniydi, kerakli bilimni oladi va nimanidir o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Har qanday ma'lumot ma'lum bir shaklda taqdim etilishi lozim. Dastlabki axborot shaklidagi janr – bu maqola yoki yozma manba hisoblanadi. Bu ma'lum bir voqea yoki hodisa haqidagi qisqa xabar. Kengroq tafsilotlar maqolalarda yoritiladi. Bunday maqolalarda jurnalist tomonidan dalillar bilan keltirib o'tilishi hamda biror-bir axborot yoki ma'lumotni tahlil qilish istagi aks etishi lozim. Tahliliy maqola muallifining vazifasi – o'quvchilarga nafaqat ma'lum bir voqea haqida xabar berish, balki “jonli misol” yordamida butun bir voqeani tahlil qilish vazifasi yuklanadi. Axborot janrlariga yana reportaj (matbuot, radio, televidenie orqali beriladigan mahalliy axborot yoki mahalliy muxbir xabarlari) va hisobot ham kiradi.

Reportaj tayyorlashdan maqsad – voqeani jonli tasvirlash. Uni tayyorlash uchun jurnalist voqea sodir bo'layotgan joyda ishtirok etishi shart.

Hisobot – bo'lib o'tgan voqeani aniq va to'liq tasvirlash, ya'ni dalillarning quruq bayoni. Hisobot konferensiya, yig'ilish va turli xil majlislardan yozilishi mumkin. Lekin biz kengroq tarqalgan axborot janri – maqolaga qaytamiz.

Zamonaviy vaqtli nashrlar sahifalarida maqolalarning har xil turini uchratish mumkin. Keng tarqalgan turlaridan – bu voqeyiy maqola, e'lon (anons) va mini taqrizlar. Voqeyiy maqola sodir bo'lgan biron bir voqeaga bag'ishlanadi. Anons maqola esa bo'lib o'tishi lozim bo'lgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealar haqidagi xabarlardan iborat. Masalan, yaqinda bo'lib o'tadigan konsert, ko'rgazma yoki yarmarkalarning aniq sanasi, vaqti, qachon va qayerda bo'lishi haqidagi qisqacha ma'lumotdir. Anons maqola muallifining vazifasi – bu faqat reklama qilish emas, balki o'quvchilar ommasini o'z mamlakat yoki shaharlarida yaqin vaqt oralig'ida bo'lib o'tadigan voqealar haqida ma'lumot berish hamdir. Shuning uchun anons maqola jurnalistni bo'lib o'tadigan tadbirga bo'lgan munosabatini bildirgan holda salbiy xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Kichik taqriz – bu madaniy sohadagi ma'lum bir voqeaning (spektakl, ko'rgazma, shou) qisqacha bahosi. Uning taqrizdan farqi shundan iboratki, muallif bo'lib o'tgan voqeaning badiiy ahamiyatini tahlil qilishni maqsad qilmaydi. U o'quvchilarga, voqeaga nisbatan fikrini, munosabatini bildiradi, xolos.

44-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning qanday yozilishini aniqlang va koʻchirib yozing.

Qirq-boʻgʻim, qashqar-gul, chala-savod, xush-bichim, ish-yoqmas, omma-bop, millatlar-aro, tez-oqar, havo-rang, ayta-oladi, chanqov-bosdi, umum-davlat, odam-sifat, Tyan-Shan, huzur-baxsh, oʻz-bilarmonchilik, mansab-parast, tinchlik-sevar, baland-parvoz, Yakka-saroy, gʻayrat-qilmoq, radio-markaz, tele-tanlov, kino-yulduz.

Mustaqil taʼlim

1. Reportaj tayyorlash.

20-mavzu: Huquqiy madaniyat.

“Konstitutsiya – hayotimiz qomusi” matni.

Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Rasmiy-diplomatik nutq, odatda, davlat ahamiyatiga ega boʻlgan anjumanlarda davlat rahbarlari, yirik siyosiy arboblardan tomonidan soʻzlanadigan nutq boʻlib, mazmun jihatidan tabrik bilan birga xalqaro ahvolga, turli mamlakat va davlatlarning oʻzaro munosabatlariga doir masalalarni yoritishga bagʻishlangan boʻladi.

Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi [ijtimoiy-huquqiy munosabatlar](#), davlat va davlatlararo rasmiy, [siyosiy-iqtisodiy](#), madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatlik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga koʻra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, [shartnomalar](#), idora hujjatlari, eʼlonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar soʻzlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qoʻllanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini taʼminlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga koʻra; maʼlum [qilamizki](#); ...ni eʼtiborga olib; ...ga koʻra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan [kelib chiqib](#); ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak hikoya xarakterida boʻlishini, soʻzlarning bir maʼnoda ishlatilishini, badiiy-tasviriyy vositalarning boʻlmasligini, feʼlning majhullik [va buyruq-istak shakllarining](#), qoʻshma gap turlarining keng qoʻllanishini talab qiladi. Til materialini hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi [munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:](#)

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. Idoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, [buyruq](#) va [farmoyishlar](#), turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.

45-topshiriq. Kichik guruhlariga bo'linib, "Sud notiqligi" boyicha "Oqlovchi nutqi", "Qoralovchi nutqi"ga namuna tayyorlash va sahnalashtirish.

46-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib ko'chiring.

1. Zebi ikki konvoy... yalang'och qilich... o'rta... zal...kirib keldi. (Cho'lpon) 2. Unsin sevikli va qayg'uli yagona do'st... , hayot... yagona umid... bo'lgan aka... quchoqlab, qonli yarasi... yuz..., ko'z.... surib, yota berdi. (O) 3. Shahzoda koshona old... qo'l qovushtirib turgan mahramlar yon.... o'tib, oq marmar zina... pillapoyalar... bir-bir bos..., ikkinchi oshyona... chiqdi. (O.Y) 4. Hoji... bu so'z ... O'zbek oyim... nechog'liq yoqqan bo'lsa, Otabek... shu qadar yer... qaratqan edi. (A.Qod) 5. Balxliq saroybon... tanish ovoz... shahzoda... xiyol hushi... keltirdi. (O.Y) 6. Ana shu asallari... sut... so'ragan o'rtoq... atayin Qirg'iziston... borib, allaqaysi o'rmon xo'jaligi... bu kiyik bolalar... topib bergandi. (S.Ahm.) 7. Bu alamli xabar... eshitgach, Shukurbek... amlokдор... nisbatan g'azab va nafrat... yana ham oshdi. (S.A.) 8. To'g'ri, yoshlar... tarbiyalash haqidandisanda qilish... jon bor. (J.Abd.) 9. O'g'limni tirik ko'rsa., manqurt bo'l.. ham, aql... ozib hech nima... eslay olmaydigan merov bo'lib qolgan bo'l... ham mayli, o'sha cho'pon o'g'li... ishqilib jon... omon bo'l..., bas. (Ch.A)

Mustaqil ta'lim

1. Rasmiy-idoraviy uslubda matn yaratish taqdimotga tayyorlanish.

21-mavzu: O‘zbekistonda oliy ta’lim.
“Universitetlar” matni.
Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar

So‘zlarning qo‘llanish doirasi, xususiyati va til vositalarining nutq turlariga ko‘ra ajratilishi uslubiy leksika deyiladi. O‘zbek tili tizimidagi leksik birliklarning nutqda tanlab ishlatilishi tilning sotsial hodisa, inson faoliyatining turli sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalarga moslashganligi bilan izohlanadi.

Inson uchun hayotiy zarur narsalarni bildiradigan uslubiy bo‘yog‘i bo‘lmagan so‘zlar umum iste’mol so‘zlar deyiladi; Masalan: uy, kishi, osh, non, tuz, bormoq, ketmoq, sen kabi.

O‘zbek tili leksiyasidagi so‘zlar uslubiy qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi; 1) uslublararo betaraf leksika; 2) uslubiy xoslangan leksika. Nutq uslublarining barchasi uchun baravar ishlatiladigan va birorta uslubga xoslanmagan so‘zlar.

Uslubiy betaraf leksika deyiladi. Masalan: osmon, yer, daryo, tosh, suv, non, osh, bosh, edi, keldi, gapirmoq, kulmoq, ichmoq, uxlamoq va boshqalar.

Uslubiy xoslangan leksika. Nutqni birorta yoki ayrim turlari uchun ishlatiladigan so‘zlar uslubiy xoslangan leksika deyiladi. Masalan, fonetika, artikulyatsiya, urg‘u, sintaksema, leksema, teorema, vazn, radif, muxammas(ilmiy), maqol, sarlavha, zarbdor, jangovar, ulkan(publisistik) , fuqaro, qoida, qonun, modda, qaror, ariza, bildirish, xabarnoma, (axborot), nigoh, visol, xandon, murg‘ak malak, pari, saman, munis, koshona, xirof, dilband, alhor, (badiiy) uslublarga xoslangan.

Uslubiy xoslangan leksika qo‘llanishiga ko‘ra ikki xil ;1) yozma nutq leksikasi, 2) og‘zaki nutq leksikasi. Yozma nutq leksikasiga kitobiy uslub yoki badiiy, rasmiy, publitsistik ilmiy uslublar kiradi. Og‘zaki nutq leksikasiga oddiy so‘zlashuv uslubi kiradi va boshqalar.

47-topshiriq. O‘zbekistondagi oliy ta’lim tizimi haqida “Diskussiya” o‘tkazish.

48-topshiriq. Gaplarni ko‘chiring, hissiy-ta’siriy jihatdan betaraf va bo‘yoqdor so‘zlarni aniqlang.

1. Yurt yovdan qutulibdi. 2. Quyosh yer ortiga dumalab ketdi. (O’.H) 3. Allavaqtlargacha ko‘kka qarab, termilib yotdim. (G‘.G‘.) 4. G‘anim kelsa, xonumoni kul bo‘lur. (G‘.G‘) 5. Ular mening aytganimni qilishadi, chunki

men oilamizning kenjatoyiman. (E.A'zamov) 6. Mashinaning nuqsoni bo'lsa, tuzatiladi yo yana yaxshirog'i yasaladi. (A.Qahhor) 7. Birovning mulkiga nega ko'z olaytirishadi? 8. Bu qishloqning suvi zilol, zamini unumdor ekan. 9. Baqrayib turib qanchadan qancha jinoyatga yo'l qo'yayotgan ekanmiz. (SH). 10. Dildor zveno qizlari orasida eng ko'hligi, ham eng bo'shashgani edi. (S.Ahm.)

49-topshiriq. Gaplarning kesimini aniqlang va turlarga ajrating.

1. Hadislar onalarni alohida sharaflaydi. 2. "Devon"da ko'plab lirik qo'shiqlar ham mavjud. 3. "Ma'rifat" arabcha "arafa" so'zidan olingan, uning ma'nosi "bilmoq"dir. 4. Ahmad Yassaviy o'zbek tasavvuf adabiyotining porloq quyoshidir. 5. Humo – afsonaviy qush. 6. Ma'rifatli inson, ma'naviyati boy shaxs butun insoniyatni ulug'laydi. 7. Bu soyda, bu orolchada qanchadan qancha sho'xliklari qolgan uning. 8. Sakkiz mehmon ichida ikkisi benihoyat semiz edi. 9. Mana endi sahroda suv uchun kurshga bosh qo'shmoqda u. 10. Qosh-qovog'i uyulib, basharasidan zahar tomib turardi. 11. Umarali dam kulardi, dam xafa bo'lardi. 12. Soddagina chodirda yolg'iz yashagan Navoiy dilgir, sertashvish edi.

Mustaqil ta'lim

1. Xorijiy universitetlar haqida ma'lumot to'plash va taqdimotga tayyorlanish.

22-mavzu: *Ilm maskanimiz hayotidan.*

"Bizning universitet" matni.

So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari.

Shevaga xos so'zlar.

Kundalik hayotda, uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.

So'zlashuv uslubi ikki turga bo'linadi:

3. Adabiy so'zlashuv uslubi.

4. Oddiy so'zlashuv uslubi

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga adabiy so'zlashuv uslubi deyiladi.

Adabiy tilning ogʻzaki shakli adabiy soʻzlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlari, televideniye koʻrsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

Adabiy til meʼyorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy soʻzlashuv uslubi sanaladi.

Shevaga xos soʻzlar

Bir tilda soʻzlashuvchilarning muayyan hudud bilan chegaralanadigan koʻrinishiga sheva deyiladi.

50-topshiriq. Kichik guruhlariga boʻlinib, universitet hayotidagi voqea-hodisalar yuzasidan reportaj tayyorlang.

51-topshiriq. *Gaplarda qoʻllanilgan kirish soʻz va kiritmalarni aniqlang va tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring.*

1. Ayniqsa Shilimshiq oʻldirilgach, bu taxmin haqiqatga aylanganday boʻldi. (T.Malik.) 2. Darvoqe bu ukani tanishtirmadingiz. (H.A.) 3. Toʻgʻrisini aytsam men oʻzim ham shu ishga qiziqardim. (O.Y.) 4. Negaki Boʻri polvon faqat zafar qozonish uchun olishadi! 5. Qarabsizki yuz tillasi ikki-uch kunda oʻziga qaytib boradi! (M.Ism.) 6. Kecha Fotih Muzaffarov unga oʻz iborasi bilan aytganda gʻoyat masʼuliyatli vazifa topshirgan edi. (O.Y.) 7. Nigoraning yozishicha ular bu yilgi ishga nuqta qoʻyib endi qaytmoqchi boʻlib turganlarida qoʻrgʻon ichida sirli bir lahimga duch kelishibdi. (O.Y.) 8. Xullas sizni har koʻyga soladi. (T.Malik.)

52-topshiriq. *Quyida berilgan sodda gaplarni davom ettirib, qoʻshma gaplar hosil qiling.*

1. Gʻalaba qoʻlga kirdi... 2. Salima dam olish kuni teatrga bormoqchi edi... 3. Asalxon eʼtibor bilan tingladi... 4. Faqat na unisi bir narsa deya oldi... 5. Tushga yaqin yomgʻir tindi-yu... 6. Eshik sekin-sekin ochildi-yu... 7. Boʻrilar mungli tovush chiqarib uvillashar... 8. Tantiboyvachchaning nafasi ichiga tushib ketdi... 9. Ona faryod chekishini qoʻyib koʻzlarini yumdi... 10. Yaxshi roʻzgʻor jannat... 11. Oʻzi ertakka oʻxshagan-u...

Mustaqil taʼlim

1. “Mening universitetim” mavzusida matn tuzish.

23-mavzu: *Bo'lajak kasbim.*
"Muhandislik kasbi" matni.
Matn va uning ko'rinishlari

Har qanday og'zaki va yozma nutq parchasi matn hisoblanadi. Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanadi. Ular quyidagilardan iborat: bog'lovchilar,

*Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik **matn** hisoblanadi.*

U

bog'lovchi vazifasidagi ayrim so'zlar, takroriy bo'laklar, olmoshlar, sinonimlar. **Matn va uning turlari.**

Matn ma'lum fikrlar yig'indisi hisoblangan nutq, nashrdan chiqqan asardir. u o'ziga xos asar hisoblanishi va mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki

hujjat xarakteriga ega bo'ladi.

Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat.



1915-1980

Rolan Bartning e'tiroficha, matn – alohida turdagi axborot tashuvchi vosita, chunki u faqat axborot uzatish bilan cheklanib qolmasdan, balki tashviqot, estetik ko'ngil ochish hamda marosimiy faoliyat maqsadlari

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. *Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.* Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi.

Akademik matnlar yaratishning o'ziga xos xususiyatlari.

Matn tilini ilmiy o'rganishda undagi tovush

(harf) va mazmun munosabatiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Matn tilshunosligi ilmiy jihatdan boshqa tilshunoslik sohalaridan farq qiladi. Tilshunoslik, umuman, tilda fonema (tovush), morfema (eng kichik ma'nodor birlik), so'z (tilning asosiy markaziy birligi), so'z birikmasi va gapni birliklar

Tilda eng yirik birlik gap bo'lsa, matnda u eng kichik birlik bo'lib qoladi.

sifatida ajratib, ularni fonologiya, morfologiya, leksika, sintaksis va stilistika kabi til bosqichlarida o‘rganadi.



Tarjima doim asosan til va adabiyot oraliq‘ida bo‘lib kelgan; shu sababli ba‘zan xorijiy tadqiqotchilar tarjimaning tilshunoslik va adabiyotshunoslik bilan bog‘liq bo‘limlarini ko‘rsatadilar, lekin ularga hech qachon ikki mutaxassislik sifatida qaramaydilar. *Matnshunoslar badiiy asarlar matniga yassi (gorizontal) va tik (vertikal) holatlar jihatidan qaraydilar. Birinchi holatda matn, abzas, murakkab sintaktik birikma va gap farqlansa, ikkinchi — tik holatda matn ichidagi barcha xususiyatlar mazmunni tashkil etishi ko‘rinadi. Tarjimada ham ana shu ikki holat e‘tiborga olinadi.*

Yaxshi tarjima natijasida asar muallifining uslubi, o‘z “ovozi”, mahorati, ba‘zi til alomatlari saqlanib qoladi.

Shu ijobiy xislatlar mohir tarjimon Ibrohim G‘afurov tomonidan Chingiz Aytmatovning rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Qulayotgan tog‘lar” asari matnida ko‘plab topiladi.

Tarjimada I.G‘afurov o‘z ining tilni chuqur bilishini namoyish etgan.

Nazarimizda, uning tarjima jarayonida qo‘llaydigan o‘z lug‘ati bor. Mana, e‘tibor bering: “...kaboblarning hidlari ko‘kka **o‘rlagan**”; **...serizdihom** azim shaharda turar”

“olti oy muz-qori erimaydigan **terskaylarda** istiqomat qilardi. Shuning uchun uni qorli tog‘lar **ilvirs**i deb atashardi, qor **uyurimlari**...”; “...echkilar **hurkak**, sezgir ko‘z larini yiltiratib...”; “...ular tovushdan ham tez uchishadi — jonlari, tuyoqlarining kuchida — **barashmaydi**...”, “...**suvloqdan** bosh ko‘tarib, **...suvotga** borayotgan kiyiklar...”

Tarjima aslida bir tildagi matnni boshqa bir tilga o‘girishdir. Asliyat matni va tarjima qilinayotgan tilga o‘girilgan matn bosqichma-bosqich bir-biri bilan chog‘ishtirilishi natijasida hosil bo‘luvchi bu jarayonni tillararo matnlarni qiyoslash, deb atash mumkin.

Bu soʻz va iboralarning koʻpchiligi hattoki besh jildli izohli lugʻatdan ham topilmaydi. Asliyat matniga tarjima jarayonida qanday yondashish, zarur soʻz va iboralarni topib, ularni oʻz oʻrniga qoʻya olish, urf-odat, madaniyat, psixologiya va hayotning eng nozik tomonlarini yaxshi bilish natijasida Chingiz Aytmatovning “Qulayotgan togʻlar” asari goʻyo oʻzbek tilida yozilgandek tuyuladi.

53-topshiriq. *“Har yili bir necha tillar yoʻq boʻlib ketadi. Baʼzi kishilarning fikricha, bu muhim emas, chunki tillar kamroq boʻlsa, hayot ham osonroq boʻladi”.*

Siz bu fikrga qoʻshilasizmi yoki yoʻqmi? mulohazalaringizni yozing. 40 daqiqa.

54-topshiriq. Matn ustida ishlash. Matnni oʻqing va fikr bildiring.

BOLALAR CHAPAQAYLIGI PATOLOGIYAMI?

Bola tugʻilishidan yoki ilk oylaridan uning chapaqayligini aniqlash mushkul. Faqatgina bir, bir yarim yoshga toʻlganda ota-onalar bolaning chapaqayligini sezishi mumkin. Agar bolaning chapaqayligini bir yoshga toʻlmasdanoq sezishsa, nevrapatolog mutaxassislariga murojaat qilib chapaqaylik toʻla shakllanmasdan avval oldini olish mumkin. Keyinchalik esa bu holatni toʻgʻrilab boʻlmaydi. Odatda chapaqaylik kamchilik, meʼyordan ogʻish va patologik holat sifatida ham izohlanib, oʻng qoʻl bilan faoliyatni amalga oshiruvchilarga nisbatan aqliy, jismoniy va psixologik jihatdan ortda qolish degan yanglish nuqtayi nazarlar ham mavjud. Chunki chapaqaylar har qanday faoliyat va harakatlarni bemaʼlol bajara olishadi (yozish, chizish va h.). Chapaqaylar butun ontogenez davomida barcha jismoniy va psixik rivojlanish bosqichlaridan muvaffaqiyatli oʻtib barkamol shaxs sifatida shakllanib boradi. Yuqoridagi fikrlarni A.Makedonskiy, L.Do Vinchi, Mikelanjelo kabi bir qancha mashhur chapaqay shaxslar misolida ham izohlash mumkin.

Chapaqaylarni oʻng qoʻlda bajarishga majbur qilish yoki buning uchun jazolash ularni psixologik travma olishlariga, nevroitik holatlariga sabab boʻlishi, nutqining buzilishiga, shuningdek, duduqlanishlariga olib kelishi mumkin. Oʻng qoʻlda yozishga oʻrgatilgan chapaqaylardan yozma ishni avval oʻng qoʻlda, soʻng chap qoʻlda bajarishlari soʻralganda ularning chap qoʻlda bajargan ishlari oʻng qoʻldagisidan farqli ravishda savodliroq, chiroyliroq boʻlgan. Oʻng qoʻlda yozganlarida ular sekin yozib, juda koʻp xatolarga yoʻl qoʻygan va bunda mushaklarning zoʻriqishi, yurak

urishining tezlashishi, arterial bosimning ko‘tarilishi, emotsional zo‘riqish kuzatilgan.

Bu mulohazalarni chapaqaylarning o‘ng qo‘lda bajarishga o‘rgatilganda o‘qish jarayonini o‘zlashtirishdagi susayishga olib keluvchi omil sifatida baholash mumkin. Agar ularning psixologik holat va jarayonlariga qarshi borib majbur qilinmasa, ular o‘ng qo‘lda faoliyat olib boruvchilardan kam bo‘lmagan yutuqlarga erishishlari mumkin.

55-topshiriq. Quyidagi gaplarni qaysi uslubda yozilganligini aniqlang.

1. Tilning lug‘at boyligini oshiruvchi vositalardan biri – so‘z yasovchi qo‘shimchalardir. 2. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda. 3. Ruxsat etasiz, o‘rtoq Ikromjon Usmonovga mukofot topshirishni. 4. Ma’lumki, bugun mustaqil respublikamizda sanoatning turli tarmoqlari, jumladan, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari, energetika va boshqa sohalar gurkirab rivojlanmoqda. 5. – Voy, bo‘yginangdan aylanib ketay seni. Sog‘intirib qo‘yding-ku ayajoningni. 6. Qisqa, cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlarning turlicha birikuvidan har xil rukn deb ataluvchi ritmik bo‘laklar tuziladi. 7. Oshnam kasal, borib ko‘rsangiz, xursand qilamiz. 8. O‘rtoq A‘zamov siz o‘z grajdanlik burchingizni to‘g‘ri anglagansiz. 9. Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. 10. Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil.

Mustaqil ta’lim

“Bo‘lajak kasbim” mavzusida matn tuzing.

24-mavzu: Hayot mening tasavvurimda.

“Vatan tuyg‘usi” matni.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

Ilm-fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy ma’lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta’rif-qoidalariga) ega bo‘lishi, atamalarining keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo'llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi.

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.

56-topshiriq. Turli kimyoviy elementlar to'g'risida matn tuzing.

57-topshiriq. Turli uslublarga doir matnlar tuzing.

Mustaqil ta'lim.

“Hayot mening tasavvurimda” mavzusida matn tuzish.

25-mavzu: Ustoz maktabi.

“Ustoz-shogirdlik an'anasi” matni.

Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Monologik nutq so'zlovchining o'zi bevosita kuzatgan, bilgan voqea-hodisalarini bayon qilishidir. **Monologik nutq** - so'zlovchining o'ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e'tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo'ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba'zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o'zaro bog'liq, o'ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo'lgan matnning ma'lum bo'lagi xos bo'ladi. Monologik nutq og'zaki (nutq bayon qilish) yoki yozma (publitsistika, memuarlar, kundaliklar) shaklda ifodalanishi mumkin. Monologik nutqning og'zaki shaklida ohang

(intonatsiya) muhim o‘rin egallaydi, yozma monologik nutqda esa ohang matnning sintaktik konstruksiyasiga, mantiqiy urg‘u tushuvchi so‘zlarning joylashish o‘rniga bog‘liq. Monologik nutq notiqning asosiy nutqiy shakllaridan hisoblanadi; lingvostilistik usul bo‘lib, bir qancha turlari mavjud. Masalan, ta‘sir qiluvchi (targ‘ib qiluvchi) monologik nutq, dramatik monologik nutq, lirik monologik nutq, hikoya qiluvchi (axborot beruvchi) monologik nutq. Monologik nutqning ochiq nutq va ichki nutq kabi ko‘rinishlari mavjud; ochiq monologik nutqda personaj o‘z nutqini ovoz chiqarib bayon etadi; ichki monologik nutqda monolog personajning ichki nutqi, o‘ylari shaklida namoyon bo‘ladi.

58-topshiriq. O‘.Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan parchalar asosida matn tuzing.

KUCHSIZNIKI — KUCHLI

Kuchli odamning g‘azabidan qo‘rqmang. Ojiznikidan qo‘rqing! Kuchli to‘ksa, o‘z g‘azabini to‘kadi. Ojiz esa g‘azabi bilan birga o‘zгалardan ko‘rgan sitamini ham qo‘shib sochadi...

AQL VA TUYG‘U

Erkak — aqlga, ayol — tuyg‘uga moyil, deydilar. Aqli tuyg‘usiga bo‘ysungan erkak — nodon. Tuyg‘usi aqliga buysungan ayol donodir...

DIL VA TIL

Dili bilan tili muttasil bir ko‘chadan yuradigan odamga oson tutmang...

UYAT

Bandasidan uyalmagan odamning Xudodan qo‘rqishiga ishonish qiyin.

59-topshiriq. Kichik guruhlarda ishlash.

1-guruh. Asar qahramonlariga maktub yozish.

2-guruh. Mavhum narsalarga maktub yozish.

3-guruh. Aniq otlarga maktub yozish.

Mustaqil ta‘lim

1. Maqollar, iboralar asosida matn tuzish.
2. Badiiy asarlardan ichki monologik nutqqa namuna topish.

26-mavzu: Kasbim tarixi.

“Islom Karimov- istiqlol asoschisi” matni.

Soha lugʻatlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

Lugʻatlar, avvalo, ikki turga boʻlinadi; 1) qomusiy lugʻatlar, 2) lingvistik (yoki filologik) lugʻatlar.

Qomusiy lugʻatlar. Bunday lugʻatlarning farqlovchi belgilari. Qomusiy lugʻatlarning sohasi soʻz emas, balki ular bildirgan narsalar, tarixiy shaxslar, geografik nomlar haqida maʼlumot beriladi.

Lingvistik lugʻatlar. Bunday lugʻatlarning farqlovchi belgilari. Shu tilning barcha lugʻaviy birliklarini (leksik, frazeologik) oʻz ichiga oladi va ularning maʼnosi, grammatik va boshqa xususiyatlari haqida maʼlumot beradi. Soʻz lik barcha soʻz turkumlaridan boʻladi .

Lingvistik lugʻatlar lugʻaviy birliklarining necha tillardan olinishiga koʻra ikki turga boʻlinadi.

1) bir tilli (oʻz til) lugʻatlari, 2) ikki tilli(tarjima) lugʻatlari.

Bir tilli (oʻz til) lingvistik lugʻatlarda soʻz va iboralar bir tilda (masalan, oʻzbek tilida) izohlanadi. Bunday lugʻatlar ham ikki xil koʻrinishda ega. 1) umumiy lugʻatlar: izohli lugʻat , imlo lugʻat, morfemik lugʻat va boshqalar.

60-topshiriq. Oʻz sohangizga doir matn tuzing va terminlarni izohlang.

61-topshiriq. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” bilan ishlash: **zulfior, toʻsh, jilmoq, ildiz, taft, nasr, nazm, musodara** soʻzlarining maʼnosini izohlang.

Mustaqil taʼlim

1. Soha lugʻatlari yordamida mutaxassisligingizga oid terminlarni izohlang (20 ta).

2. “Islom Karimov – istiqlol asoschisi” mavzusida taqdimotga tayyorlanish.

27-mavzu: *Iqtidor va mehnat.*
“Bog‘dod akademiyasi” matni.
Matnga so‘z va termin tanlash

Matn gapdan ko‘ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq ko‘rinishidir. Matnni hajm belgisiga ko‘ra ikkiga ajratamiz: Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn). Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ayrim adabiyotlarda matn hajm jihatidan uchga ajratilgan: kichik, o‘rta va katta hajmli matnlar. «Telegramma, ma’lumotnoma, ariza, ishonch xati, tushuntirish xati hamda vaqtli matbuotda chiqadigan e’lon va kichik xabarlar kichik hajmdagi matnlar sanaladi. O‘rta hajmdagi matnlarga hikoya, qissa, she’r, doston, poemalar kiradi. Katta hajmdagi matnlarga povest, roman, dramatik asarlar, trilogiyalar kiradi». Lekin bu tarzdagi bo‘linish ayrim chalkashliklarni yuzaga chiqaradi. Shunday dostonlar borki, hajm jihatidan romandan katta. Nafaqat hajm jihatidan balki, ichki mazmun, xarakterlar tasviri, ruhiyat talqini jihatidan ham uncha-muncha romandan qolishmaydigan dostonlar bor. Masalan, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» kabi go‘zal dostonlarimiz shakl va mazmun jihatidan yirik hajmli asar hisoblanadi. Yoki kichik hajmli she’rlarni ham o‘rta matn hisoblaymizmi? Umuman, bu tarzdagi tasnif jiddiy asosga ega emas. Shuning uchun matnni tilshunoslikda keng tarqalgan ikkiga ajratib tekshirish tamoyili asosida o‘rganishni ham mantiqan, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bag‘ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she’r va she’riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog‘lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Masalan: Talantsiz yozuvchi tovuqqa o‘xshaydi. Yong‘oqdek tuxum tug‘adi-da, qaqog‘lab olamni buzadi! (O‘.Hoshimov).

62-topshiriq. Quyidagi Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonidan olingan parchani ifodali o‘qing va nasriy bayonini yozing.

FIDOYILIK TO’G’RISIDA RIVOYAT

Qadim zamon, ayol dini
Fidoyilik, deganlar,
Eri o‘lsa, xotinini
Qo‘shib ko‘mar ekanlar.
O‘tib necha avlod umri,
O‘tib cheksiz ko‘p zamon,
Hech bir davr bu udumni
Qilolmadi qatag‘on.
Dahshat edi bu chinakam,
Bilar edi odamlar.
Lek odatga qarshi ne ham
Qilar edi odamlar?
Ham ota, ham onaizor
Go‘rga kirib barobar,
Qola berdi chirqirab zor
Bola-chaqa darbadar.
Asli o‘sha zamonda ham
Donishmandlar bor edi.
Lekin ular ichra mard kam,
Ko‘p – ehtiyotkor edi.
Bosh ko‘tarmas erlar,
Isyon –
Ayollar ham qilmasdi.
(Chunki ular eri qachon
O‘lishini bilmasdi.)
O‘tib ketdi ming yil fursat,
Qarshi qudrat yo‘q edi.
Bir kun jangga keta turib
Bosh ko‘tardi bir o‘g‘lon.

Ot boshini shartta burib,
Yeldi tikka shoh tomon.
Dedi: “Ey, shoh!
Oldimda bor
Yo hayot-u, yo o‘lim.
Qolayotir rafiqam zor,
Qizalog‘im va o‘g‘lim.
Agar men bu jangda o‘lsam,
Sodiq qolib udumga
Farzandlarim onasin ham
Hukm etarsan o‘limga.
Men-ku, ular erki deya
Jangga ketayotirman.
Farzandlarim mehri deya
Fidoyiman, botirman.
O‘lsam, ular onadan ham
Yetim qolsa banogoh,
Vayron bo‘lsin charxi olam!
Bu ne vahshat!
Eshit, shoh!
Boqiysi yo‘q hech odamning
Biz ketarmiz tamomiy,
Ammo ayol – bu olamning
Kelajagi, davomi.
Shu-chun, o‘lsam, kunim bitib,
Vasiyatim shu bo‘lsin:
Yorim emas, hamroh etib
Jang qurolim ko‘milsin”.
Bu so‘z misli ochiq kunda
Bo‘ldi momaguldurak.
Keltirdilar bolta...
Kunda...
Bas, tafsilot ne kerak...
Bechoraning ochiq qolgan
Ko‘zlarini yumdilar. Mozoriga
O‘zi bilan
Qilichini ko‘mdilar.
Bo‘lsin deya tavqi la’nat,
Avlodlarga ta’limot,

Qabri uzra yozdilar xat:
 “Bunda yotar manfur zot!
 Ko‘ring bu kas holatini,
 Yotar misli xor-u xas,
 Bobolarning odatini
 U bilmadi muqaddas.
 His qilmadi u yurakdan
 Ayol uchun dunyoda
 Eri bilan ko‘milmakdan
 Saodat yo‘q ziyoda!”
 Qurbon bo‘ldi
 Bir mard yigit,
 Qoldi tavqi la‘natga.
 Lekin ilk bor hukm o‘qildi
 Ul kun mash‘um odatga.

Kel, ey ko‘nglim,
 Inson aslo
 Yaralmagan sabrga.
 Sig‘inaylik o‘sha tanho
 Tahqirlangan qabrga.
 Haq uchun
 Bosh tutgan tikka
 Mardlar ruhi yor bo‘lsin.
 Bu dunyoda nohaqlikka
 Ko‘nmaganlar bor bo‘lsin.
 Zo‘rluk ko‘rsang,
 Qilma toqat,
 Har boshda bir o‘lim bor.
 Fidoyilar umri faqat
 Bu dunyoda poyidor!

63-topshiriq. So‘zlarni tarjima qiling.

Lug‘at ishi

savdo	
umumiy ovqatlanish	
maishiy xizmat	
imtiyoz	
chegirma	
	химчистка
	парикмахер
	качественный
	хозяйственные товары
	чуткий

Mustaqil ta‘lim

1. “Bog‘dod akademiyasi” haqida ma‘lumot to‘plash.
2. Tayanch so‘zlar asosida matn tuzish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. - T.: Universitet, 2006.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. - T.: Talqin, 2005.
3. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. - T.: O‘qituvchi, 2003.
4. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. - T.: Бухоро, 1999.
5. Shamsiyeva M. Ona tilidan mashqlar to‘plami. Uslubiy qo‘llanma. - T.: 1-TPK, 2016.
6. Shamsiyeva M. Topshiriqli diktantlar to‘plami. Uslubiy qo‘llanma. - T.: 1-TPK, 2014.
7. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. Metodik qo‘llanma. – T.: Turon zamin ziyo, 2017.
8. Ferdinand de Sossyur. “Umumiy tilshunoslik kursi”. Tarjima. - T.: Mumtoz so‘z, 2017.
9. Шамсиев Ў.Б. Болалар чапақайлиги патологиями? Илмий мақола. – T.: Мактаб ва ҳаёт илмий-методик журнали, 1-сон, 2012.

Mundarija

Kirish	3
1-mavzu: <i>O‘zbekiston – yagona vatan</i> . “Mustaqil davlat” matn. Orfoepiya qoidalar. O‘zbek tilida tovushlar talaffuzi.....	4-6
2-mavzu: <i>O‘zbek tili – davlat tili</i> . “O‘zbek tili” matni. O‘zbek tili imlo qoidalar.....	6-8
3-mavzu: <i>Milliy qadriyatlar – millat iftixori</i> . “O‘zbek udumlari” matni. O‘zbek tilida so‘z yasalihi.....	9-11
4-mavzu: <i>Tarix va zamonamiz</i> . “Tariximizga oid manbalar” matni. Tilning leksik qatlamlari.....	11-18
5-mavzu: <i>Ulug‘ ajdodlarimiz</i> . “Abu Rayhon Beruniy” matni. Atamalar va ularning vujudga kelishi.....	18-22
6-mavzu: <i>Vatan va vatanparvarlik</i> . “Xotira va qadrlash maydoni” matni. Ijtimoiy-siyosiy leksika.....	22-24
7-mavzu: <i>Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik</i> . “Muzeylar” matni. Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi.....	24-32
8-mavzu: <i>Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida</i> . “Yoshlarning yutuqlari” matni. O‘zbek tilida sinonimlar.....	32-34
9-mavzu: <i>Zamonaviy dunyoda ta’lim</i> . Ta’lim va zamon” matni. Til va terminologiya.....	35-47
10-mavzu: <i>Kitob mutolaasi</i> . “Kitob” matni. Erkin va turg‘un birikmalar.....	47-48
11-mavzu: <i>Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba</i> . “Adabiyot” matni. Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.....	48-50
12-mavzu: <i>Alisher Navoiy hayoti va ijodi</i> . “So‘z mulkining sulmoni” matni. Frazologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.....	50-51
13-mavzu: <i>Ommaviy axborot vositalari</i> . “Ommaviy axborot vositalari” matni. Publitsistik uslub.....	52-58
14-mavzu: <i>Mutaxassislik matni ustida ishlash</i> . Ixtisoslikka oid matnlar. Og‘zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.....	58-60
15-mavzu: <i>O‘zbekiston va jahon</i> . “BMT va xalqaro burchlar” matni. Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari.....	61-62

16-mavzu: <i>XXI asrda innovatsiyalar</i> . “Kashfiyotlar va ixtirolar” matni. Ulmiy uslub va uning xususiyatlari.....	62-68
17-mavzu: <i>Davrimizning global muammolari</i> . “Tabiatni asrash” matni. Maqola va uning turlari.....	68-69
18-mavzu: <i>Ixtisoslik tili ustida ishlash</i> . Ixtisoslikka oid matnlar. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.....	70-74
19-mavzu: <i>Inson va salomatlik</i> . “Sog‘liqni saqlash” matni. Reportaj tayyorlash.....	74-76
20-mavzu: <i>Huquqiy madaniyat</i> . “Konstitutsiya – hayotimiz qomusi” matni. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.....	76-77
21-mavzu: <i>O‘zbekistonda oliy ta’lim</i> . “Universitetlar” matni. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so‘zlar.....	78-79
22-mavzu: <i>Ilm maskanimiz hayotidan</i> . “Bizning universitet” matni. So‘zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so‘zlar.....	79-80
23-mavzu: <i>Bo‘lajak kasbim</i> . “Muhandislik kasbi” matni. Matn va uning ko‘rinishlari.....	81-84
24-mavzu: <i>Hayot mening tasavvurimda</i> . “Vatan tuyg‘usi” matni. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.....	84-85
25-mavzu: <i>Ustoz maktabi</i> . “Ustoz-shogirdlik an‘anasi” matni. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.....	85-86
26-mavzu: <i>Kasbim tarixi</i> . “Islom Karimov- istiqlol asoschisi” matni. Soha lug‘atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.....	86-87
27-mavzu: <i>Iqtidor va mehnat</i> . “Bog‘dod akademiyasi” matni. Matnga so‘z va termin tanlash.....	88-90
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	91

Muharrir: Sidikova K.A.